

Uch Parda, Sakkiz Ko'rinishli Tragikomediya

Qatnashuvchilar:

Manzura - 40 yoshda, qiyofasidan ancha yosh ko'rindi.

Mirsafo - 38 yoshda, gavdali, vujudidan jismoniy kuch-quvvat yog'ilib turadi.

Sayyora - 20 yoshda, chiroylar.

Halimxon - 20 yoshda, novcha va xipcha.

Burhoniddin - 68 yoshda, salobatli, ko'rinishdan 50 yoshlarga borgandek tuyuladi.

Davron - 18 yoshda, qadamidan o't chaqnaydi, kuchli.

Lazokat - 54 yoshda, qo'pol va semiz.

Abror - 59 yoshda, qiltiriq.

Melivoy - 65 yoshda, nozik va satang.

Muyassar - 17 yoshda, chin go'zal.

**Birinchi Parda**

**Birinchi Ko'rinish**

Manzuraning shahar markazidagi keng, besh xonali xonadoni. Katta zal, devorlarga gilamlar osilgan, chet el mebellari bilan jihozlangan. Polga patgilamlar to'shalgan. Katta va noyob qandil nur taratib turibdi.

Sahnada Manzura paydo bo'ladi.

Uzunchoq katta stol ustida idish-tovoqlar, ichimlik va ichkilik shishalari ayqash-uyqash bo'lib yotibdi. Stullar nari-beri bo'lib qolgan. Bir stul oyog'i osmondan bo'lib turibdi. Bularning bari hali yaqinda bu yerda bazmi jamshid bo'lganidan darak beradi.

Manzura xavotirlanib yon tarafagini xonaga kirib ketadi va tisarilib qaytib chiqadi.

Manzura. Voy sho'rim, voy sho'rginam, yolg'izgina qizim...

Hali kayfi tarqalmagan Mirsafo tungi xalatini sudraganicha chiqib keladi, bir-biriga tikilishadi. Jimlik.

Manzura. Axir, hali qizim turmush qurmagan bokira... Endi qizimning keyingi taqdiri nima bo'ladi, yashshamagur.

Mirsafo. Tushuntiribroq gapir, nima gap o'zi?

Manzura. Nima qilib qo'yganining bilasanmi, ablak?

Mirsafo. Mayli, bo'lar ish bo'pti, birov eshitmasin. O'tgan ishga salavot, so'z beraman, kelishamiz, qizingga tovonini to'layman.

Lekin sekinroq gapir, sekin... Birov eshitmasin.

Manzura (ikki soniga qarsillatib urib). Ha, yashshamagur-a, qizlik iffatini pulga chaqib bo'larkanmi? Axir, qiz bolada faqat bir marta bo'ladigan iffat pardasini qayta tiklab bo'lmaydi-ku. Yo'q, sen yaramasni shunday qo'yib qo'yamayman, o'zingni o'ldiraman, uy-joyingga o't qo'yaman, keyin o'zimniyam o'ldiraman.

Mirsafo. O'lish hech qachon qochmaydi. Yashashdan gapir. Lekin sekinroq. Devorniyam qulog'i bor.

Manzura. Yo'q, endi men hech narsadan qo'rqlamayman, seni o'ldirB-B-magunimcha tinchimayman. Uch marta turmush qurib orttirgan yolg'iz qizimni zaxa qilib qo'yding-a. It tegdi unga endi. (Charchab, yerga chordona qurib o'tirib qoladi, halloslagancha qo'li bilan o'zini yelpiydi.)

Mirsafo (qo'lidagi xalatni kiyib, kresloga cho'kadi). Bu yog'idan g'am yema, Manzura. Mana men, Mirsafo turibman. O'zim qizingga zo'r yigit topib, katta to'y-tomoshalar qilib uzataman. E, pul kuchi bilan nimalarni qilib bo'lmaydi deysan. Pulning kuchidan ko'ra qudratliroq narsa yo'q bu olamda, odamlar olamida. Qo'l ostimda bir so'zimni ikki qilmaydigan baquvvat-baquvvat yigitlar ko'p.

Manzura. Qiz bolaga uylanmagan o'zbek yigitining yuragida armoni qoladi, qizim bir umr uning oldida tili qisiq bo'lib yuradi.

Mirsafo. E, hozir zamon boshqa, yigitlar o'zgarib ketgan. Haqi bo'lsa bas, chekinishga, ko'zni chirt yumishga, hatto xotinim qiz chiqdi deyishga ham rozi bo'lismashadi. Ha, haq degani - pul degani, boylik degani, uy-joy degani, "Mersedes degani, oltin degani, kelinning sepi zo'r bo'lsa, iffatning o'rnnini bosib ketaveradi.

Manzura. Bekorlarni aytibsani, o'zing ayol zotidan emassan-da, bilmaysan. Qiz bola uchun qizlik iffatidan ham zo'rroq sep yo'q. Sen buni tushunmaysan.

Mirsafo. Qizingning ishini o'zim o'nglayman, uni o'zim baxtli qilaman.

Manzura. Nima, xotiningni qo'yib, qizimga uylanarmidning yoki uni ikkinchi, xufya xotin qilib qo'yarmiding?

Mirsafo (xandon otadi). Bu gaplarining havoyi gaplar. Lekin qizing bilan bo'lar ish bo'lgan ekan, uning endigi qismatiga befarq qaramayman, uni o'zim baxtli qilaman.

Sayyora (chap tomondan quvnoq holda chiqib keladi, egnida tungi qizil harir xalat). Albatta! Albatta men baxtli bo'lismashim kerak.

Manzura (qizini yig'lab quchoqlaydi). Bolam, qizalog'im, boshimizda shunday ko'rguliklar bor ekan... (Mirsafo.) Qizimning o'rniqa o'z qizingni qo'yib ko'rsang bo'lmasmida...

Sayyora. Oyi!

Manzura. Boshqa birov sening qizingni buzib qo'ysa, sen uni nima qilarding...

Sayyora. Oyi deyman!

Manzura. Shumi tasavvur qilasanmi, tasavvur qila olasanmi? Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa birovga ur-da!

Sayyora. Bo'lidi qiling, oyi!

Manzura. Nega endi bo'lidi qilar ekanman. (Ko'ksini ko'rsatib.) Mana bu yerimga tuz sepilgan, achishyapti, yonyapti. Axir, farzand jigardan paydo bo'ladi! O'zing ona bo'limguncha, onaning holini bilarmidинг. Uff.

Mirsafo. Avval men yuvinib olay. Keyin gapni davom ettiraveramiz. (O'ng tomonga chiqadi.)

Sayyora (oyisiga yaqin borib, nim ovozda). Mirsafo akani tinch qo'ying. Umuman esa, bugundan boshlab mening ichki ishlarimga aralashmang.

Manzura. Yuzga kirsang ham onang bo'lib qolaveraman. Seni tergashga haqqim bor.

Sayyora. Boshqa onalarning o'z bolalarini tergashga haqqi bo'lsa bordir. Lekin sizning haqqingiz yo'q.

Manzura. Nima, nima? Nega mening haqqim bo'lmas ekan?

Sayyora. Chunki, sizdan ibrat olib bo'lmaydi. Uchta erdan bittasiniyam etagidan ushlab qololmagansiz.

Manzura. Menga tana qilimagine, yengil tutmagin, qizim. Ayol kishi uyim-joyim, bola-chaqam deb oilani tashlab ketmasligi mumkin ekan-u, lekin erkak kishini, agar u xohlamasa, oilada ushlab qolib bo'lmas ekan. Men buni uch marta sinab ko'rdim.

Sayyora. ...va uchala eringiz ham sizni tashlab ketdi.

Manzura. Yuzimga solmagin, badbaxt.

Sayyora. Nega achchig'ingiz chiqadi, bor gap shu-ku, oyi. Ha, siz menga ibrat bo'lomaysiz. Men boshqa yo'lidan boraman. Meni tashlab ketishlarini istamayman. Lekin, kimki menga yoqmay qolsa, uni men tashlab ketaman. Buning uchun mustaqil shaxs bo'lismish shart.

Manzura. Ha, ishtahang juda zo'r-ku. Juda katta ketmagan, oxiri baxayr bo'lmaydi...

Mirsafo (sochiqqa boshimi arta-arta o'ng tomondan chap tomonga o'tib ketadi). Men endi kiyinib olay... Suv issiqliqina ekan, mazza qildim.

Manzura. Men bexabar qolibman, sen juda o'zgarib ketibsan-ku, qizim.

Sayyora. Uyda deyarli bo'lomaysiz-ku, oyi. Oyda, yilda bir uchrashib qolamiz.

Manzura. O'zing bilasan-ku, ishim o'zi shunaqa, ishbilarmonlar tunu kun ishlashadi. Men o'zimni o'tga, cho'qqa urmasam, bizlarni kim boqadi, ochdan o'lamiz-ku.

Sayyora. Uyda bo'lsangiz mehmon kutishdan bo'shamaysiz.

Chap tomonda kiyinib olgan Mirsafo ko'rindi, uni sezishmaydi.

Manzura. Sen juda o'zgarib ketibsan-a, qizim. Tarbiyang bilan ana endi o'zim jiddiy shug'ullanaman.

Sayyora. Kechikdingiz. Yigirma yilga kechikdingiz. Xo'sh, menga aytинг-chi, o'z dadam kim?

Manzura. Ko'rgansan-ku!

Sayyora. Suvratini! O'zini emas.

Manzura. O'sha suvrat dadangning suvrati-da. Muqaddas xotira, unutilmas yodgorlik sifatida oltin gardishga solib yotog'im to'riga osib qo'yibman-ku.

Sayyora. Xotira gardishda emas, qalbda saqlanadi. Suvratdagi kishining otam ekaniga umuman ishonmayman ham.

Manzura. Ishongin, qizim. Bizlarni tug'ruqxonadan suvratdagi o'sha kishi - sening dadang olib chiqqan edi, tug'ruqxona darvozasi oldiga oq "Volgani ko'ndalang qilib qo'yigan edi, doya xotinlarga suyunchini ayamagan edi, eh, u onlarim naqadar quvonchli edi-ya.

Sayyora. Agar o'z dadam bo'lsa, nega endi meni sira yo'qlamaydi?

Manzura. Bilmadim. Balki mendan ko'ngli qolgandir?

Sayyora. Unda menda ne gunoh? Balki meni o'z farzandi deb hisoblamas.

Manzura. Yo'q, unday emas. Sen uch oylik chaqaloq ekaningda dadang bizni tashlab ketgan edi.

Mirsafo chap tomondan viqor bilan chiqib keladi.

Mirsafo. Ona-bolaning urishi - doka ro'molning qurishi. Endi sulh bo'lsin. (Soatiga qarab.) Bugun bu yerga ajratilgan vaqtim tugadi. Men ketdim.

Sayyora. To'xtang.

Mirsafo. Onangga so'z berdim, tovoningni to'layman. Lekin hozir ortiqcha qola olmayman. Uyda xotinim uxlamay meni kutib o'tiribdi, kechiksam subutim ketadi. Shuni sen ham bilib qo'yinki, men oilamni hammadan va hamma narsadan ustun qo'yaman.

Manzura. To'xta.

Mirsafo. Vaqtim tugagan. Kechiksam xotinimdan baloga qolaman.

Manzura. To'xta deyapman senga! Qizimning tovoni masalasini hal qilib ket.

Mirsafo. So'z berdim-ku, ertaga hal qilamiz.

Manzura. Yo'q, hozir hal qilib ketasan. Bo'lmasa, vaziringga arz qilaman.

Mirsafo tarashadek qotib qoladi.

Sayyora. Vazirning bundan boshqa qiladigan ishi yo'qmi?..

Mirsafo (bir oz o'ziga kelib, titrab-qaqshagancha, Manzuraning oldiga keladi, cho'ntagidan pul chiqarib, unga uzatadi). Mana qizingning tovon puli. O'n ming dollar. Yana qora Yo'l dosh beradigan ikki ming dollar ham seniki.

Manzura. Bu qiz boqib katta qilgan mening haqqim. (Pulni oladi). Pul qo'lning kiri. Sayyora yosh narsa, pulni tutib turolmaydi, puldan pul tug'dirolmaydi. Uning tovon haqi ko'chmas mulk bo'lishi kerak.

Mirsafo. Yani...

Manzura. Yani, Eskijo'va, Oloy, Farhod, Beshyog'och, Mirobod, Otchopar bozorlaridagi yoki Navoiy ko'chasidagi yarmarkaga joylashgan xususiy tijorat magazinlaringdan birini qizimning nomiga xatlab, notarius orqali rasmiylashtirib berasan. (Qiziga.) Yoki senda boshqa taklif bormi?

Sayyora. Shahar markazidagi go'zallik saloniga xo'jayinlik qilishni istardim. Erkaklar zali, ayollar zali, manikyur, pedikyur, kosmetika, liboslar zali, chevarlar fabrikasi.

Manzura. Sen shunga rozi bo'lsang, men qarshi turmayman. Qolaversa, o'zing ham sartaroshlik mакtabini bitirgansan. Kelajakda butun jumhuriyatimizdag shu sohalarni o'z qo'lingga olishing mumkin.

Sayyora. Kimsan Sayyora bo'lib ketaman!

Manzura. Iloyo, omadingni bersin, qizim. (Mirsafo.) Qani, kabinetimga kirib, tilxatingni yoz. Sayyora, Mirsafo akangga o'zing yo'l ko'rsat.

Mirsafo. So'z berdim-ku, tilxatni ertaga yozaman.

Manzura. Yo'q, qolgan ishga qor yog'ishi mumkin. Tilxatni shu bugun rasmiylashtiramiz. Men hozir tanish notariusga telefon qilaman. Tegishli ulushi evaziga muhrini qo'yniga solib yetib keladi. (Telefon raqamlarini tera boshlaydi).

Sayyora (Mirsafo). Orqamdan yuring. (Chiqadi.)

Mirsafo (yurayotib). Bir visol oqshomi deb boshimga shuncha tashvish orttirib oldim. Buyam mayli-yu, lekin bugun xotinimdan baloga qoladigan bo'ldim. Ana shunisi yomon bo'ldi. (Chiqadi.)

Manzura (zalga). Hokimiyatni qo'lga olish mana bunday bo'libdi. Egri tayoqqa - egri to'qmoq-da. Ha, ayol kishining makri qirqta eshakka yuk deb, bekorga aytishmagan. Mirsafo tuzog'imga tushirdim, shu yo'l bilan qizimning kelajagini moddiy jihatdan taminladim. Endi bundan buyoqqa milliarder Mirsafo qo'limda qo'g'irchoq, har maqomda o'ynataman.

Sayyora o'z ish kabinetida, katta stol qoshida o'ziga oro berib o'tiribdi. Stol ustida soat, telefon, radiola, jazzi televizor hamda boshqa aloqa vositalari. Kabinetda kreslo, divan va stullar, jurnal xontaxtalar qo'yilgan, yerga cho'g'dek qip-qizil katta gilam to'shalgan. Sayyoraning tepasidagi devorga uning oltin gardishga solingan portreti va "Sayyora go'zallik saloni deb yozilgan lavha osib qo'yilgan.

Soat to'qqiz marta bong uradi. Sayyora pardozini to'xtatib, lab bo'yog'i, upa-eliklari, ko'zgusini stol tortmasiga qo'yib qo'ygach, chaqiruv tugmasini bosadi. Ostonada raqqoslardek xipcha va nozik, novchadan kelgan, xushro'ygina kotib - Halimxon paydo bo'ladi, egnida qora shim, yangi yengi kalta oq ko'yak, bo'ynida yashil galstuk, oyog'ida qora amirkon kovush, bir qo'lida bloknot, ikkinchisida qalam.

Halimxon (bir tomonga bir oz bosh egib). Buyursinlar, begin.

Sayyora. Birinchi kelgan mijoz kirsin.

Halimxon. Aytganingiz bo'ladi, begin. (Chiqadi.)

Sayyora stol tortmasidan oltin gardishli qora ko'zoynak olib, taqadi. Xonaga xuddi shunday ko'zoynak taqqan, qip-qizil shoyidan kofta-yubka kiyan Manzura kirib keladi, qo'lida ham qizil sumka.

Sayyora (o'rnidan turib ketadi). Oyi! (Ko'zoynagini oladi.)

Manzura. Qizim! (Ko'zoynagini oladi). Kabineting senga juda-juda yarashibdi, muborak bo'lsin.

Sayyora. Tashakkur! O'tiring oyi!

Bu orada Halimxon patnischada, jazzi chinni idishlarni tantanavor ko'tarib kirib, birini likopchasi bilan Manzuraga tutqazadi.

Halimxon. Buyursinlar, xonim! Qora qahva. Turk uslubida hozirlanmish.

Manzura (qahvani ijirg'anib, majburan olib, Sayyora qarshisidagi stulga o'tiradi. Zo'rma-zo'raki). Tashakkur!

Halimxon (Sayyoraga qahva uzatadi). Buyursinlar, begin.

Sayyora (qahvani olib joyiga o'tiradi). Tashakkur. Halimxon, hozircha oldimga hech kimni qo'y mang.

Halimxon. Jonim bilan. (Ikkoviga bir-bir tazim bajo aylab). Totli bo'lsin. (Chiqadi).

Manzura (Halimxonning orqasidan qarab qolib). Bu turqi sovuqni qayoqdan topding? Nima balo, somonxonayu molxonada paydo bo'lganmi... Balki g'o'zapoya ota-onasiga to'shak bo'lganmi... Basharasining qo'tir jomashovdek g'adir-budir bo'lishiga qaraganda belanchagi ustidan samolyot butifos sepib o'tganga o'xshaydi. Tezroq yo'qot uni bu yerdan, ertalabdan tabimni tirriq qildi menga qahva tutqazib.

Sayyora. Yo'q, oyi, Halimxon ko'rinishdan... mana shunaqaroq bo'lsayam, qalbi go'zal, yaxshi yigit. Ilgaritdan tanishmiz, u ham sartaroshlik mакtabida o'qigan. Buning ustiga bir qo'li uzunroq odam tavsiya qilib qoldi. Sartarosh qilib qo'yishim ham mumkin edi, lekin qabulxonaga qo'ya qoldim, oyoq-qo'li chaqqongina. Qolaversa, qabulxonada ayol kishi o'tirsa, g'iybat chiqishi mumkin. Barno yigitni qo'ysam, undan besh battar bo'ladi. Lekin eng muhim shuki, Go'zallik salonimizga go'zallik istab kelgan mijozlarim Halimxonni ko'riboq ancha taskin topadilar.

Manzura. Ha, endi tushundim. Buyam biznesning, mijoz ko'paytirishning bir yo'li degin. Barakalla, qizim. Ha, esimga tushib qoldi, qachonlardir bir kitobda o'qigandim, er-xotin tinch-xotirjam, sokin, bezatilgan go'shada, pokiza o'rinda, yuvuqli holda lazzatB-lanishlari, lazzat onlarida, jimo paytalarida go'zal narsalarni o'ylashlari, chiroqli manzaralarni ko'z oldilariga keltirishlari kerak ekan. Ana shunda ko'rkan va sog'lom farzandlar dunyoga kelar ekan. Aks holda anovi Halimxonning o'xshash turqi sovuqlar tug'ilib qolishi mumkin. Mana shunaqa ibratli gaplarni yozib, shior qilib, ko'cha eshikdan, kiraverishdan boshlab hamma yoqqo osib qo'ydir, qizim. Bir daqiqalik huzur-halovatni ota-onasi ko'radi-yu, jabrini haligindaqa Halimxonlaring chekadi. Go'zal bo'lishlik kattakon baxt, qizim! Xunuklik, badbasharalik - baxtiqarolik. Bu xatoni unutib ham, tuzatib ham, kechirib ham bo'lmaydi. Bilasanmi, qizim, er xotinini qaysi paytda urishi mumkin? Shariat kitobida yozilishicha, xotin kishi agar ziynatlanib yurmasa, eri uni hatto urishi mumkin ekan.

Sayyora. Mana shu gaplingizni asl manbasidan topib, shior qilib osib qo'yaman...

Manzura. Xo'sh, ishga o'rganib qoldingmi? Qiynalmayapsanmi?

Sayyora. Asta-sekin o'rganyapman. Ha, aytganday, xizmat ko'rsatishning yangi usulini joriy etdim. Telefonda buyurtma qabul qilamiz, mijozlarning uyiga borib xizmat ko'rsatamiz.

Manzura. Masalan, qaysi xizmatlar?

Sayyora. Soch-soqol olish, manikyur qilish, pedikyur qilish, kosmetika qilish, massaj... Yura olmaydigan nogironlar bor, kunduzlari ish paytida salonimizga kelolmaydiganlar bor va, umuman, jonini ortiqcha ko'yitmaydigan boyvuchchalar ham ko'p. Vaqtini juda-juda qadrlaydigan ishbilarmonlar ham topiladi. Bu xizmat turini ertalablar, keyin kechqurun yettidan o'ngacha haftaning hamma kunida joriy etdik. Bunga haligi Halimxonni mutasaddi qilib qo'ydim. Telefonda buyurtmalarni qabul qiladi, xodimlarni mijozlarning uyiga yuboradi, o'zi ham vaqt-vaqt bilan mijozlarnikiga borib turibdi, qo'lim ishdan chiqib qolmasin deydi-da. Men ham idoraviy-tashkilish ishlardan sal bo'shashim bilanoq kunida bir-ikki mijozlarni qabul qilaman, albatta, kerakli, obro'li kishilarning soch-soqollarini olib qo'yaman.

Manzura. Ha, to'g'ri qilasan, kerakli odamlardan tanish-bilishni ko'paytiraver, ularning ism-shariflarini bilib qol, iloji bo'lsa, tashrifnomalarini olib qol, eng yaxshi kolleksiya - bu tashrifnomalar to'plamidir, bu o'zi bir xazinadir. Men restoranda ishlaganimda mo"tabar xo'randalarning tashrifnomalaridan iborat bir kolleksiya to'plagandim.

Sayyora. Ko'rganman.

Manzura. Yasha... Men onangman, shu sababli bir-ikki narsani senga nasihat tarzida aytib qo'yishim shart: avvalo, xodimlaringni ham, mijozlarningi ham qabulingda uch daqiqadan ortiq tutib turma, iloji boricha tez chiqarib yuborishga, gapni kalta qilishga intil. Hozir mening huzuringda bunday uzoq o'tirib qolishim ham aslida noto'g'ri. Men hozir ketaman... (Tez gapiradi.) Boshliq kabinetni oyoqosti bo'ldimi, obro'si bir pul bo'ldi, degan gap. Odamlarni yakka-yakka qabul qil, biri bilan gapni tugatmay turib, ikkinchisini qabul qilma, kim bo'lmasin, marhamat qilib, qabulxonada kutib tursin. To'g'ri, bazan-bazan istisno bo'lishi mumkin, dunyoda yuz foiz bajariladigan qoida yo'q... Men...

Sayyora. Gaplaringizni tushunishim mumkin-u, lekin tushunishni istamayman.

Manzura. Nega endi?

Sayyora. Yo'llarimiz boshqa-boshqa... Xo'sh, siz menga aytin-chi, qachongacha qolipga tushib yashaymiz, ehtirosga erk berma, uni qilma, buni qilma, cheklash ustiga cheklash. Shu cheklashlarni yo'qotmay turib, odam qatorida, dunyo odamlari qatorida, ilg'or kishilar qatorida yashay olmaymiz. Men asosiy baxtsizlikni ana shu huda-behudaga cheklashlarda ko'rib turibman.

Manzura. O'zi senga gap uqtirib bo'lmay qolibdi. Xo'sh, bugun uyga borasanmi?

Sayyora. Bilmadim.

Manzura. O'zing tanangga bundoq o'ylab ko'r, sendan boshqa mening kimim ham bor, qizim. Dala hovlida yotib yurishni bas qilda, uysa qayt. O'zim kechki ovqatga bozor go'shtidan manti qilib qo'yaman.

Sayyora. Ko'rman, bugun payshanba, ish ko'p, mijozlarni kechki soat o'ngacha qabul qilamiz.

Xuddi shu payt Mirsafo Halimxonni ko'tarib organicha kabinetga bostirib kiradi. Sayyora va Manzura ag'rayib qolishadi.

Halimxon (Mirsafoning quchog'ida tipirchilaganicha). Voy-voy, nima qilyapsiz, qovurg'alari qolishadi.

Mirsafona. Men yo'l ustini birrov tabriklab o'tgani kirdim, vaqtim juda ziq. (Chiqqa boshlaydi, orqaga qaytadi, Manzuraga.) Men so'zimning ustidan to'la chiqdim. Go'zallik saloni Sayyora nomiga to'la-to'kis va uzil-kesil rasmiylashtirildi, nomini ham o'zim qo'yib berdim: "Sayyora."

Manzura. Mard yigit shunday bo'ladi-da. Lekin keyingi kunlarda juda kamnamolar?

Mirsafona. Ish ko'p. Italiya bilan yana qo'shma korxona ochyapman. Aytganday, Sayyoraga bir gap aytmoqchi edim, ey attang, yodimga tushmay turibdi-da.

Manzura. Mirsafo, mashinangda meni Eskijo'va bozoriga tashlab o't. Go'sht, meva-cheva olay. Uyda hech nima qolmasti.

Mirsafona. Bemalol.

Manzura bildiki, Mirsafo Sayyora bilan xoli gaplashmoqchi.

Manzura (Mirsafoga). Mensiz balki gaping yodingga tushib qolar. (Chiqadi).

Sayyora Mirsafoning bag'riga tashlanadi.

Mirsafona (Sayyorani quchoqlab, yuz-ko'zlaridan, yelkalari, sochlaridan o'pib). O'sha kungi tilxat hamon onangda. (Sayyorani o'zidan uzoqlashtirmoqchi bo'ladi.)

Sayyora (Mirsafoning ko'ksiga bosh qo'yib). Ha, seyflarida... Nima edi?

Mirsafona. Bu go'zallik saloniga ega chiqib qoldi. Uni... sovg'a qilishim shart ekan... Senga bundan ham yaxshisini olib beraman. (Sayyorani o'zidan uzoqlashtiradi.)

Sayyora. Mayli. Lekin avval yangi salonga ega bo'limganimcha, buni bermaymiz. (Mirsafoning ko'zlariga boqib, sochlarini silaydi).

Mirsafona (Sayyorani o'zidan uzoqlashtiradi). Onang qaytib kirib qolishi mumkin.

Sayyora. Endi qachon uchrashamiz?

Mirsafona (atayin narxini oshirib). Hozir ishim ko'p.

Sayyora. Sizni sog'indim.

Mirsafona (sirli qilib). Bo'lmasa gap bunday: o'sha tilxatni olib menga bergen kuning birga bo'lamic. Kelishdikmi?

Sayyora. Tilxat seyfda-ku. Uni qanday ochaman?

Mirsafona. Bilmadim. Seyfni buzasamni yoki unga tushadigan kalit topasanmi, bu sening ishing. (Sayyoranining qo'llarini yelkasidan asta olib tashlaydi.) Ko'rishguncha xayr. (Chiqib ketadi.)

Halimxon (ostonada paydo bo'lib). Ruxsat eting, begin, murojaat qilay!

Sayyora. Marhamat!

Halimxon. Urush va mehnat faxriysi Burhoniddin navbatdan tashqari kirmoqchi.

Sayyora. Sabab?

Halimxon. Faxriyligidan tashqari qandli diabetga mubtalo ekan... Mana, tashrifnomasi.

Sayyora (tashrifnomaga ko'z yugurtirgach, stol tortmasiga tashlab qo'yadi, o'zicha). Bu birinchisi. (Halimxonga.) Agar navbat kutuvchilar rozi bo'lishsa, mayli, faxriy navbatdan tashqari kira qolsin.

Halimxon. Iltifotiningizni mammuniyat ila hozir yetkazaman, begin. (Chiqadi).

Telefon jiringlaydi.

Sayyora. Sayyora eshitadi, buyursinlar... Yo'q, bizga PolKjshaniki kerak emas. Biz faqat farangiy duxi ishlatamiz... Marhamat.

Xayr. (Telefon qulog'ini qo'yadi.)

Bashang kiyungan, oltin gardishli ko'zoynak taqqan, yo'g'on guldar hassa ushlagan, ko'rinishdan baquvvat o'rta yashar kishi - Burhoniddin kirib keladi.

Sayyora (o'rnidan turadi, joy ko'rsatadi). Keling, otaxon, o'tiring.

Burhoniddin. Yaxshi yuribsamni, qizim. (O'tiradi). Meni tanimading-a. (Ko'zoynagini qo'liga oladi.) Men Burhoniddin bo'laman.

Sayyora. Tanidim, o'tgan haftada keluvdingiz.

Burhoniddin. Barakalla, qizim. Rosa bir hafta burun - payshanba kuni kelib, sening barmoqlaringdan shifo topib ketgan edim.

Buni qaraki, azbaroyi xudo, o'sha kuni kuchimga kuch, madorimga mador, darmonimga darmon, g'ayratimga g'ayrat kirdi, yigitdek bo'ldim qoldim. Sog'lig'im yaxshilanganidan kennoying ham xursand bo'lib ketdi.

Sayyora. Otaxon, gapning lo'ndasini aytu qoling. Mening sizdan boshqa ishlarim ham ko'p o'zi.

Burhoniddin. Xo'p, qisqa qilaman. Hozirgi xotinim uchinchi oilam, birinchisi bilan yoshligimda ajrashganman. Ikkinchisi bundan uch yil avval vafot qildi. Sakkiz o'g'il-qizimdan qutilgan edik. Qizlarim tinchib ketgan. O'g'illarimning hammasiga alohida-alohida uy-joy qilib berganman. Hayhotdek hovlida bo'y yetib qolgan kenja qizim bilan qolgandik. Ikki yilcha beva yashadim. Keyin uyida o'tirib qolgan bir hamshira qiz o'zi talabgor bo'lib menga turmushga chiqdi.

Sayyora. Qiz bola o'zi talabgor bo'lib chiqdi deng?

Burhoniddin. Ha, tashqi qiyofamdan ancha yosh ko'rinishman. Bu xotinim shu qiyofamga uchgan bo'lsa kerak. (o'rnidan turib o'tiradi.) Balki menga elliq yosh berishar.

Sayyora. Undan ham kam.

Burhoniddin. Aslida oltmis sakkizdaman. Hozirgi xotinim o'ttiz sakkiz yoshda. To'g'ri, Sharqda erkak kishi qarimaydi, deyishadiyu, lekin bir yilcha bo'lib qoldi, qandli diabet degan dardi bedavoga chalinib qoldim, madorimga qirqib qo'ymoqda.

Xotinim odobi zaifa, tilida biror nima demaydiyu, lekin qarashlaridan sezib qolaman, mendek qup-quruq saksovuldan ayni yetilib turgan vujudi taft olarmidi, u qiyalib ketyapti, men ham uni ko'rib, qo'limdan biror chora kelmagach, ezilib ketyapman. Bugun bo'lmasa, ertaga, bu oy bo'lmasa, keyingi oy taloq qilishimni talab qilib qolishidan cho'chiyman. Buning oldini olishga choratadbir izlayman. Davoni sening barmoqlaringdan topgandayman. Bir haftadan beri uyimizda quvnoqlik hukm surmoqda. Bu payshanbani umid bilan, orziqib kutmoqdamiz. Xotinim ertalabdan boshlaboq devzira guruchdan qazi-qartali, noxotli palov damlashga unnab ketdi. Qizim, bizlarni noumid qilma.

Sayyora. Xo'sh, nima qilay?

Burhoniddin. Xuddi o'tgan galgidek sirli, sehrli, o'tli barmoqlaring bilan butun vujudimni silab-siypab qo'yegin.

Sayyora. Afsuski, bugun bandman. Boshqa mijozlarim kutib turishibdi.

Burhoniddin. Illoyo, umringdan baraka top. Meni noumid qaytarma, qizim. Mana bu konvertda yuz dollar bor. Senga biz chol-kampirdan mukofot. (Konvertni stol ustiga, Sayyoraning oldiga qo'yadi.) Agar bu kam desang, yanagi safar qo'shib kelaman. Kassaga esa tegishli haqqining to'layman. Ha, men uchun pul muammo emas, xudoga shukur, uy-joyim, dala hovlim, mashinalarim, yetarli mol-mulkim bor, pulim, uncha-muncha oltinim, biroz valyutam ham bor. Ilgari bunday gaplarni gapirib bo'lmasdi, boylikni yashirish zarur edi.

Sayyora. Hamma narsangiz bor ekan, ertangi kuningiz taminlangan ekan. Lekin tashvishli ko'rinasiz, xotirjam emassiz.

Burhoniddin. Qalbim notinch. Ko'ngil yosh-da, lekin mador yo'q, qizim. Faqat xotinin ketib qolishidan qo'rqaman. U loaqlan kenja qizimni uzatgunimcha uyimda bo'lishi kerak. Bilasan, o'zbekchilik, onasiz, ayol kishisiz qiz uzatish amri mahol. Kenjam o'n yettiga to'ldi. Joyi chiqishi bilanoq uzatib yubormoqchiman. Meni mana endi tushunib yetgandirsan, qizim.

Sayyora (konvertni stol tortmasiga tashlab qo'yadi). Sizni tushundim, avval yengil dush olib, o'ninchini kabinaga kirib dam olib turing, men siz uchun bir amallab vaqt ajratib, oldingizga kiraman, Burhoniddin aka!

Burhoniddin. Voy "aka degan burro tillaringdan otaginang o'rgulB-sin, qizim. (Yashnab, yoshargandek bo'lib, hassasini teatrdragidek qo'lida o'ynatib chiqib ketadi.)

Halimxon (kirib). Navbat yetgan mijoz talaba ekan, ruxsat beraymi, begin, yoki...

Sayyora. Mayli, kirsin, biz uchun barcha mijozlar teng huquqli. (Qora ko'zoynagini taqib oladi.)

Halimxon. Oqilasiz, begin. Ko'p yashang (Chiqadi.)

Yalt-yult kiyangan, qora ko'zoynak taqqan Davron bir shoda kalitni qo'lida o'ynab kirib keladi.

Sayyora. Ke, xizmat?

Davron. Kasalman. Shu yerda davolansa bo'ladi, deb eshitib keldim.

Sayyora. Bu yer kasalxona emas, yanglish kelibsan.

Davron. Kasalim ham huv unaqa kasallardan emas.

Sayyora. Nima kasal?

Davron. Mana shu husnbuzarlar meni qiyaydi, soqol olishga ham qiyalaman (bir qo'li bilan yuzlarini qashiydi, ikkinchi qo'lidagi shoda kalitlarni aylantirib o'ynaydi.)

Sayyora Davron qo'lidagi bir shoda kalitga ko'zi tushib, etibor beradi.

Sayyora. Bor-yo'q kasaling shumi?

Davron. Shu. Tez tuzatsa bo'ladi mi?

Sayyora. Bo'ladi. (Ko'zidan ko'zoynagini oladi).

Davron (Sayyora ko'zoynagini olgach, uning yoshligini bilib, sensirashga o'tadi). Bo'lmasa, tuzating... tuzat. Sen ham o'zim qatori ekansan-ku.

Sayyora. Necha yoshga kirding?

Davron. O'n sakkizga... Gapni burma, tuzatasanmi-yo'qmi?

Sayyora (savolga savol bilan javob beradi). Nima uchun shuncha kalitni ko'tarib yuribsan yoki...

Davron. ...o'g'irlikka tushmayman. Lekin do'st uchun hammasiga tayyorman.

Sayyora. Shuncha kalitni nima qilasan?

Davron. Hammasing o'rnii bor-da (Kalitlarni bir-bir ko'rsatib, izoh beradi.) Mana bu shahardagi uchastkamiz darvozasining kaliti, mana bu shu uchastkadagi o'z xonamning kaliti, mana bu shahardagi o'z garajimning kaliti, mana bunisi esa dala hovlim darvozasining kaliti, mana bunisi dala hovlimdagi garajning kaliti, mana bu dala hovlimdagi uysa kiriladigan kalit, mana bu "Neksiyamning kaliti, mana bu "Mersedesimning kaliti, mana bu seyfimniki, ikkinchisi dala hovlimdagi seyfimniki, mana bu mayda kalitlar esa stol tortmalarini.

Sayyora. Seyfing ikkitami?

Davron. Ha, har birining kalitlari uchtadan, zapasi bilan bo'lgani yaxshi-da. Chilonzorda yashaydigan bir o'rtog'im bor, kalitlardan nusxa ko'paytiradi. O'zida ming-ming kalit bor, har qanday seyfga tushadigan.

Sayyora. Kaliti yo'qolgan bir seyfimiz bor. Shuni ochishga yordam ber.

Davron. Sen uchun yordam beraman, evaziga sen mening kasalimni tuzatasanmi?

Sayyora. Tuzataman... Sen... Oting nimaydi.

Davron. Davron.

Sayyora. Yaxshi oting bor ekan. Davron, o'zing haqingda menga gapirib ber-chi.

Davron. Xo'p. Hali aytganimday, bu yil o'n sakkizga to'ldim. Sharqshunoslik institutida ikkinchi kursda o'qiyman. Xalqaro iqtisodiy aloqalar bo'limaldi, to'g'risini aytasam, meni amakilarim o'qishga joylab qo'yishgan. Beshta amakim bor, biri vazir, ikkitasi katta amaldor, ikkitasi SP tuzib olgan, yani qo'shma korxonalar xo'jayini.

Sayyora. Familiyalari kim?

Davron. Bizlar mashhur Yunusovlar bo'lamic.

Sayyora. Eshitganman.

Davron. Tog'am, to'rtta xolam bor, hammalari azaldan tijoratchi, oldin yashirin savdo-sotiq qilishardi, endi oshkora. Ilgari chayqovchi deb kamsitsila, endi tujjor deb hurmatga sazovor. Oyim ham xolalarimning buri, vino zavodida laborant bo'lib nomiga ishlaydi, asosan, chet elga qatnaydi, oldin Turkiyaga borardi, endi Birlashgan Arab Amirliklariga, Xitoyga borib kelmoqda. Aka-ukalari orasida faqat dadam bo'sh-bayov chiqqan, hamma uni orqavarotdan "Abror so'tak deydi..."

Sayyora. Otangni haqorat qilma.

Davron. Oilada onam xo'jayin, aytgani aytgan, degani degan. Istasa, otamga semiz-semiz oyoqlarini uqalatib o'tiradi. Ovqatni ham otam qiladi, kir-chirga ham, qozon-tovoqqa ham, hovliga ham otam qaraydi.

Sayyora. Otangni judayam yerga urib yubording-ku. Bo'ldi, bas qilmasang, sendan ham ixlosim qoladi. Shunday otaning o'g'li kim ham bo'lardi deb.

Davron. Men asrandiman.

Sayyora. Qo'y-ey!

Davron. Yo'q, shunday, yaqinda eshitib qoldim. Emishkim, men ota-onamning to'yidan keyin o'n besh yil o'tgach tug'ilibman. To ungacha onamning qorniga yopishib yotgan mishman. Bular bo'lmag'ur gaplar. Agar shu gaplar rost bo'l'sa, nega endi mendan keyin bola ko'rishmaydi. Umuman, yolg'iz farzandli oilanling biror ishkali bo'ladi, hammasida bo'lmasayam, to'qson to'qqiz foizida bola asrab olingen bo'ladi, men bunday oilalarни kuzatib, o'zimga qiyoslab kelyapman. Negaki o'zim yolg'izman-da. (Xo'rsinib.) Dahshatli joyi shundaki, men na otamga, na onamga, na amakilarim, na tog'alarimga o'xshayman, hadeb ularga zid ish qilgim kelaveradi, aytganlarining teskarisini qilaman, bo'lmasa o'rniga tushmaydi. Balki millatim ham o'zbek emasdir.

Sayyora. Juda ham olib qochishga usta ekansan-ku.

Davron. Hech olib qochayotganim yo'q, gapning sirasini aytyapman. Ota-onam, qarindosh-urug'larimga hech qovusha olmayman, ular orasida o'zimni begona his qilaman. Garchi ular meni juda ardoqlashsa ham. Demak, men boshqa ota-onaning farzandi, boshqa qarindosh-urug'larning tug'ishgani bo'lismish kerak, deb hisoblayman.

Sayyora. Ota-onang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l deyishadi.

Davron. Qani meni dunyoga keltirgan o'sha otam, qani meni tuqqan o'sha onam?! Odam bolasi bo'lismish uchun o'z ota-onang kimligini bilishing shart. Bo'lmasa inkubatordan chiqqan oyog'i sariq jo'jadan nima farqing bor?.. Men aslida dunyoga kelmasam bo'larkan yoki go'dakligimda meni bo'g'ib o'ldirib yuborish kerak edi. Chunki mendaka chiqindidan odamlarga foyda kelmaydi, tabiatan bilib turib yaxshilikka yomonlik qiladigan odamman.

Sayyora. Balki menga bir yaxshilik qilarsan.

Davron. Qanday?

Sayyora. Chilonzordagi o'rtog'ingdan bir xalta kalit olib, bugun kechqurun biznikiga bor, mana tashrifnomam.

Davron (tashrifnomani olib). Xo'p.

Sayyora. Demak, kelishdik. Seni uyda kutaman.

Davron. Ko'rishguncha. (Ketadi.)

### Ikkinchchi Parda

#### Uchinchi Ko'rinish

Manzuraning kvartirasi. Birinchi ko'rinishdagi manzara. Sayyora kirib keladi.

Sayyora. Oyi, mantingiz pishdimi? Qornim juda ochqab ketdi.

Manzura (ichkaridan inqillab-sinqillab, qo'lidagi shapaloqdek ko'zguga qaraganicha, yuziga upa-eklik surtganicha zalga chiqib keladi). Manti qilolmadim. Mirsafon men bilan keldi.

Sayyora. A? (Kresloga o'tirib qoladi.)

Manzura. Undan vafo kutma. U bugun bu yerga men uchun emas, o'sha kungi tilxatni olib ketish uchun kelgan ekan... Sen qarab tur, hali seniyam o'sha tilxatni topib berishga undaydi, balki allaqachon bu haqda sendan ham iltimos qilgandir. Lekin men tilxatni bermadim. Tilxatni shunday joyga yashirganman, o'zimdan boshqa odam sira ham topolmaydi. "Avval Sayyoraga yangi ko'chmas mulk olib ber dedim. Soat yetti bo'lib qolganidir. Men to'ya boraman. Soat o'n ikkisiz kelmayman. Eshik-darvozalarni mahkamlab o'tir. Aqli qiz bo'lus Mirsafoni esingdan chiqar. O'zingga munosibi topilib qolar. (Chiqadi.)

Sayyora (onasi orqasidan). Balki... (o'rnidan turib, stol qoshiga boradi, ovqatiana boshlaydi.)

Yalt-yult kiyungan Davron og'ir xaltani ko'tarib, yuki og'irligidan bir tomonga qiyshayganicha kirib keladi.

Sayyora (xaltaga ishora qilib). Endi keragi bo'lmay qoldi.

Davron. Unday bo'l'sa, men keta qolay.

Sayyora. Ke, men bilan birga ovqatlan.

Davron (Sayyoraning yoniga kelib o'tiradi). Qornim to'q. Lekin suv ichishim mumkin.

Sayyora (Davranga shishadan suv quyib beradi). Bo'sh paytlaringda nima bilan shug'ullanasan?

Davron. Karate bilan.

Sayyora (atayin). Sen-a!

Davron. Ha. Kuchliman ham, ko'rinishimga qaraganda ancha kuchliman.

Sayyora (atayin). Sen-a! Sen kuchlimisan?

Davron. Mana senga isboti. (Sayyorani dast ko'tarib, ichkariga olib kirib ketadi.)

Sayyora (Davronning husnbuzarlarini silaganicha). Voy, sen nima qilyapsan, meni yerga tushir...

### To'rtinchchi Ko'rinish

Davronlarning hovlisi. Qarshi tomonda dang'illama imorat. Uzun va katta ayvonda Abror va Lazokat. Lazokat qizil duxoba sirilgan kresloda yalpayib o'tiribdi, egnida kimxob xalat, boshida shohi ro'mol, iroqi pocha tutilgan yashil lozimda. Uning oyoqlari ostida - gilam to'shalgan polda cho'kkalagancha jikkakkina Abror xotinining semiz-semiz oyoqlarini lozimi ustidan silab, uqalab o'tiribdi. Davron ichkaridan chiqib keladi. Uni ko'riboq Abror Lazokatning oyoqlarini uqalashdan to'xtaydi.

Davron. Dada, sizga rahmim keladi, ahvolingizga bir qarang.

Abror Lazokatga manoli qaraydi.

Lazokat. O'g'il degan otaga ham shunday deydimi, yaramas?

Davron. Shu ahvoliga bir qarang.

Abror. Menga nima qipti?

Lazokat (eriga). Siz bir gapdan qoling, bola bilan teng kelib bo'larmidi.

Abror. Oyisi, o'g'limiz tushmagur yana nasha chekkanga o'xshaydi, bu valdirashlari o'shaning kasofati.

Davron. Dada?!

Abror indamaydi. .

... Dada deyapman!

Abror yana indamaydi.

Abror. Ha, nima deysan, oqpadar!

Davron. Men oqpadar emasman, men bepadarman... Eshitdim, bilib qoldim. Men asrandi ekanman!

Lazokat. Haddingdan oshma, bola.

Davron. Oyi, siz (dadasini ko'rsatib) bu odamni er deb bilmaysiz, bilmagansiz ham. Bir malay, bir xizmatkor, bir mardikor deb hisoblab kelasiz, eshak o'mida ustiga chiqib minasiz, mana hozir ham...

PjP±CTbPsCTb. CPμPSPiP° C...CfPrPs P±P°CÍ PePμP»PjP°CÍP°, P±P°PSPrP°CÍPë P±P°CÍ PePμP»PsP»PjP°PNøPrPë. P C... CfPrPs, ChP·PëPSPi PëPSCÍPsC,, P±PμCTb.

Davron. Men sizlarga havas qilmayman, garchi boy-badavlat bo'l salaring ham. Hoy, oyi! Oyi deyapman, sizga!

Lazokat (pinagini buzmaydi). Gapiraver, qulog'im senda.

Davron. Men sizning o'mingizda bo'lsam, bu odamni er qilib, bu dunyodan befarzand o'tib ketmasdim.

Lazokat. Sen borsan-ku, o'g'lim.

Davron. Nima qilasiz, o'zingizni behuda aldab, ovutib, men asrandiman, baribir sizlarga qonim qo'shilmaydi, chunki qonim yetti yet begona. Siz aqlli xotin bo'lsangiz... Yolg'iz menga qarab qolmasdingiz. Boshqa oila qurib, bir necha o'g'il-qizning onasi bo'lib o'tirardingiz.

Lazokat. Haddingdan oshma, battol.

Abror (xotinini yupatib). Asablanmang oyisi, yuragingiz chatoq-ku. O'g'limizning jini o'zi kelib qolibdi, og'ir bo'lishdan boshqa choramiz yo'q, chidashga majburniz, sassiq ekan deb burunni kesib tashlamaydilar-ku. Bu gaplar o'zining gaplari emas, nashaning xurujlari. Qolaversa, begona emas, o'z o'g'limiz gapiryapti-da.

Davron. Bo'l magan gap. Men asrandiman. Mana endi bunga to'liq ishonib yetdim.

Abror. Sen o'g'limizsan, o'g'lim. Qolaversa, oying bilan mening muhabbatimiz juda kuchli, qattiq hurmat qilamiz bir-birimizni.

Shuning uchun ham yolg'iz sen bilan cheklanib kelyapmiz.

Davron. Shumi sizga hurmat, har kuni oyoqlarini uqalaysiz.

Abror. Men vrachman, onang sog'lig'i uchun oyog'ini uqalab turish juda zarur.

Davron. Bu bir bahona... Agar ayb sizda bo'lmasa, Asal buvum, amakilarim sizni bu tug'mas xotin bilan yashatib qo'yemasdi, ha, shunday.

Abror (nimchorak ovozda). Voydod, voydod, e xudo, qanday malomatlarga qoldirding. (Yerga muk tushganicha, kichik-kichik mushtlari bilan boshiga mushtlay boshlaydi).

Lazokat. Bo'ldi qiling, bu jinni-ku, jinnining gapiga qulq solib, kap-katta odam tentaklik qilmang.

Davron. Ko'rayapsizmi, dada, bu gumbaz, temsa tebranmas, bu ayol jonining huzurini biladi-da, shuning uchun xo'ppozday semiz, hammayog'ini jir bitib ketgan.

Lazokat. Voydod, voydod, qo'yasanmi-qo'yamsanmi, o'lar bo'lsam o'lib bo'ldim-ku. (Ikki soniga urib, yig'lab ayyuhannos soladi). E, xudo, bu kunimdan ko'ra jonimni olsang bo'l maydimi?!

Davron. Mazza! Sizlarga ozor bersam, men mazza qilaman, rohatlanaman. Chunki sizlar meni baxtsiz qilib qo'ygansizlar. Chunki sizlar meni asrab olmasangizlar, agar ota-onam tayin kishilar bo'lsa, oddiy turmush kechirsam-da, ular bag'rida unib-o'sardim, o'z ota-onam tarbiyasida betana, beg'araz o'sardim. Yoki bo'lmasa, tashlandiq bo'lsam, go'dakligimdayoq o'lib ketardim yoki bo'lmasa, shunga qarab shakllanardim, ko'rpaqga qarab oyoq uzatardim. Lekin sizlar mening baxtsizligim, qalbim notinchligi evaziga o'z baxtingizni qurgansizlar, yani ota-onam bo'lib olgansizlar. Lekin bu soxta nom. Kishi o'zi tug'maguncha haqiqiy ona, o'zi tug'dirmaguncha haqiqiy ota bo'l maydi, boshqasi puch. Sizlarning oilangiz puch, chunki yolg'onga qurilgan.

Abror. Oyisi, bu - o'g'limizning gapimas, shaytonning vasvasalari.

Davron. E, xudo, ko'rayapsanmi, yana yolg'on gapirayapti, befarzandligini tan olishni istamayapti.

Lazokat. Bo'ldi, bas qil!

Davron. Bas qilmayman.

Abror. Nima, bizlarni o'ldirib qutulmoqchimisan?

Lazokat. Xo'sh, nima qilsak, sen tinchiysan?

Davron. O'z ota-onam kimligini aytasizlar, borib ko'raman, kimligini bilaman, keyin sizlarga haqiqiy, manaviy farzand bo'laman.

Balki otam kimligini endi bilib bo'lmasa. Lekin tuqqan onam bo'lishi kerak. Kimdir to'qqiz oy qornida ko'tarib yurmasa, vaqt(soati kelgach, tug'masa, men dunyoga kelmasdim-ku. O'sha kimdirni men bilishim, gaplashishim kerak, agar o'lgan bo'lsa, qabrini ziyorat qilishim kerak. Shundan keyingina tinchiyman.

Lazokat. Dadasi, o'g'limizning miyasiga bir shubha o'nashib qolibdi. Bir o'qitib tashlash kerakka o'xshaydi katta domlalarga.

Abror. Buyam kerak. Lekin o'g'limiz o'n sakkizdan oshdi, uylantirish kerak. Davosi shu.

Lazokat. Qaniydi.

Abror. Bu haqda mahalla kattalariga og'iz ochgan edim, juda maqullashdi. Maslahatlashgani hali zamon kirib kelishsa ajabmas.

Davron. Mahallaning yeb to'ymas, dovdir-sovdirlari nima qiladi bu yerda?

Abror. Yaxshi-yaxshi odamlarning qizlarini kelinlikka dalolat qilishadi, keyin amma-xolalaring sovchi bo'lib borishadi, eng maqulini tanlashadi, sen uchrashuvlarga chiqasan, kimni yoqtirsang, o'sha bilan unashamiz. Agar kelin tomon hadeganda rozi bo'lavermasa, kazo-kazo odamlarni o'rta qo'yamiz, ular kafolat beradi, ko'ndiradi. To'yimiz yurishib ketadi.

Davron. Men uchun birovlar o'rta tushmasin. O'zimga tegishli masalani o'zim hal qilaman.

Lazokat. Lekin uylanishda obro'li, katta-katta odamlar o'rta tushmasa, kafolat bermasa, hech kim senga qizini bermaydi, ha, buyog'i o'zbekchilik.

Davron. O'zim topaman.

Lazokat. Qaniydi! O'zing top, biz rozi.

Davron. Men hozir uylanmayman.

Lazokat. Nega?

Davron. Avval o'qishim bitsin.

Lazokat. Yana to'rt yil kutolmaymiz, zamon notinch, qalqib turibdi, narx-navolar kun sayin o'zgarmoqda, ertaga nima bo'ladi, bilmaymiz. Sen uchun, sening to'ying uchun yiqqan narsalarimiz, mablag'imiz qadr-qimmatini yo'qotmay turib, seni uylantirib olaylik. O'qishing esa bo'laveradi. Uyda seni kutib o'tirgan xotining bo'lgach, uyga shoshilasan, yarim kechagacha izg'ib yurishlaring barham topadi, dars qilishga sharoit oshadi. Qolaversa, endi men uy yumushlariga charchab qolyapman, o'g'lim.

Abror. O'g'lim, onangni ham o'yla, unga yordamchi kerak.

Davron. Senlarga kelin emas, xizmatkor kerak, oyoq uqalovchi kerak. Bitta uyda bitta uqalovchi bo'lsa yetadi.

Lazokat. Yo'q, o'g'lim, kelinim faqat senga qaraydi. Men kelinimni boshimga qo'yaman. Yasantirib, bezantirib, oldimga solib qarindoshlarimnikiga olib boraman, ular kelinginamga qimmatbaho ko'rmanalar berishadi.

Abror. Iloyo, o'sha kunlarga tezroq yetaylik. (Fotiha o'qiydi).

Lazokat. Kelinni o'zimiz topamiz. Albatta, o'zing ham ko'rasan.

Davron. Menga yoqmasa-chi?

Abror. Biri yoqmasa, boshqasi yoqadi.

Lazokat. Siz aralashmay turing...

Davron. O'zim yoqtirganim bor.

Abror (sevinchdan qarsak chalib yuboradi). Urra-ey!

Lazokat. Voy onaginang sendan o'rgilsin, tilingga shakar, tilingga asal. Sen kimni maql ko'rsang, o'shangga uylantirmagan nomard.

Abror. Oyisi, siz uchun ham yaxshi. Mushkulingiz oson bo'libdi, qiz qidirib ko'chama-ko'cha sang'ib yurishdan qutulibsiz. Xo'sh, kimning qizi u? Otasi kim?

Lazokat. Onasi kim?

Davron. Bilmadim.

Lazokat. Hechqisi yo'q. Sen bilmasang, o'zimiz bilvolamiz. Xo'sh, o'qiydimi, ishlaydimi?!

Davron. Ishlaydi.

Abror. Istasa, o'zimiz o'qitib olaveramiz. Yoshginami?

Davron. Sizga nima? Uylanadigan men-ku!

Abror. Bir so'radim qo'ydim-da. Uzr.

Lazokat. Siz aralashmay tura qoling, dadasi. Bu safar o'g'limizning odamlari ko'proq sizni yomon ko'rsatib kelganga o'xshaydi...

Davron. Yoshini bilishni istasangiz, gap shuki, u mendan ikki yosh katta.

Abror. A?

Lazokat. Hovliqmay keting-ey... O'zidan kattaga uylanish Muhammad payg'ambarimiz hazratlaridan sunnat. Men rozi.

Abror (shoshilib). Men ham rozi.

Davron. Sizlar rozi bo'l sangiz ham, rozi bo'l masangiz ham mening aytganim bo'ladi.

Lazokat. Juda to'g'ri. Albatta, sening aytganing bo'ladi.

Davron. Undan keyin u qiz bola emas, juvon.

Abror. A? Erga tegib chiqqanmi? Yoki eri o'lib yosh beva qolganmi?

Davron. U erga tegmay turib... shunaqa bo'lib qolgan ekan.

Abror yana gapirmoqchi bo'lganida Lazokat erining og'zini to'sadi.

Lazokat. Buniyam hechqisi yo'q. U bilan yashaydigan sen. Nikoh o'qitganidan keyin xappihol bo'lib ketadi. Qolaversa, hazrat Muhammad payg'ambarimiz ham dastlab juvon xotin bo'l mish hazrati Xadicha onamizga uylanganlar.

Abror. Ko'rayapsanmi, o'g'lim, onang hajga borib ham tabarruk bo'lib, ham diniy bilimini oshirib, Hojiona bo'lib qaytdi. Uni hurmat qilsak, savob bo'ladi.

Lazokat. Sevganing manzilini ayt, o'g'lim, men hoziroq sovchi bo'lib boray.

Davron. Sayyora hozir erga tegmoqchi emas.

Abror (hovliqib). Oti Sayyorami! Ismi chiroyli ekan, o'ziyam chiroyli bo'lsa kerak.

Davron (oyisiga). Sayyoraning ideallari, yani orzulari ko'p ekan. Avval o'sha orzulariga erishmoqchi, bulardan biri olamga mashhur bo'lmoqchi. Ana undan keyin, mengami, boshqasigami rasman erga tegmoqchi. Hozircha esa men taklif qilsam bo'sh paytalarida bu uyimizga kelib, dala hovlimizga ham borib, yotib ketaveradi. Men ham unikiga borib kelaveraman. Oramizda to'la erkinlik. Sayyora juda zamonaviy ayol.

Lazokat. Biz-ku siz yoshlarni tushunamiz, o'g'lim. Lekin biz o'zbekmiz, musulmonmiz, musulmonobod mahallada turamiz, buyog'i o'zbekchilik. Agar sen o'ylagandek bo'ladijan bo'lsa, el-yurt malomatiga qolamiz-ku, o'g'lim.

Davron. Buning men uchun ahamiyati yo'q.

Lazokat. Axir, odam yakka yashamaydi, atrofdagilarning rayiga qarashga majbur.

Davron. Unday bo'lsa, men Sayyoralarnikiga mutlaqo bosh olib ketaman.

Lazokat. Hay, hay, bunday xayolni miyangdan butunlay chiqarib tashla. Sendan boshqa bizning kimimiz bor, o'g'lim.

Abror. Shuni aytning, oyisi.

Lazokat. Jim turing-ey...

Abror. Uzr. (Bo'yinini xam qiladi).

Lazokat. O'g'lim, agar sen uydan ketib qolsang, men go'ristonga ravona bo'laman, bu yerda men sensiz turolmayman, sensiz bu yer meni yutadi. Birgina senga qarab qolganman, o'g'lim.

Davron. Oyi, mening taklifimni bir o'ylab ko'ring. Agar Sayyoraning kelib-ketib turishiga rozi bo'l masangiz, men unikiga batamom ketaman. Sizlarga bir soat muhlat. Sizlarning asosiy xatolarining shundaki, mening asrandi bola ekanimni mendan yashirmay, menqa tarbiya berishingiz kerak edi, shunda haqiqiy manaviy o'g'lingiz bo'lib yetishardim. Yolg'on aralashdimi, tarbiya tamom. (Ichkari xonaga kirib ketadi).

Melivoy bilan Mirsafo kirib kelishadi.

Melivoy. Mulla Abror, shu yerdamilar, inim! Qochadigan odam yo'qmi?

Mirsafo. Qochadigan odam qoptimi hozir.

Melivoy (Mirsafo). Bir aytdim-qo'ydim-da.

Abror. Kelinglar, kelinglar! Assalomu alaykum!

Lazokat. Ie, ie, Mirsafo milar! (Eriga). Bizlar eski hamkasabalarimiz. (Mirsafo va Melivoya). Xush kelibsizlar. Assalomu alaykum.

Hammalari qo'l olishib ko'rishadilar.

Melivoy. Vaalaykum assalom! Yaxshi o'tiribsizlarmi?

Mirsaf. Vaalaykum assalom! To'y daragini eshitib kelaverdik.

Lazokat. Juda yaxshi qilibsiz, marhamat qilinglar. (Stol atrofiga taklif qilib, o'zi bo'sh choynakni olib, o'choqboshi tomonga ketadi).

Abror, Mirsaf va Melivoy stol atrofiga o'tirishadi.

Melivoy (fotihaga qo'l ochib). Bismillohir rahmonir rahiym! Qadam yetdi, balo yetmasin, o'tirgan o'rnimiz baland bo'lsin, Alloh taolo hammamizni o'z panohida asrasin, ikki dunyomiz obod bo'lsin, Yaratgan egamning o'zi hamisha yorlaqasin, o't balosi, suv balosi, ko'rinar-ko'rinas mas balolardan, quruq tuhmatlardan, nogohniy falokatlardan asrasin, bilib-bilmay qilgan gunohlarimizni o'zi kechirsin, shu xonadonda to'y ustiga to'ylar bo'laversin, omin Allohi akbar!

Fotiha o'qiydilar. Bu orada Lazokat choynak olib kelib, fotihaga qo'shiladi, keyin mehmonlarga choy quyib beradi.

Mirsaf (choydan xo'plab, uyoq-buyoqqa boqib). Zap to'y qiladigan hovli bo'libdimi! Kamida ming kishi sig'sa kerak.

Lazokat. Bir ming ikki yuz kishi ham sig'sa kerak. Imoratsiz o'n ikki sotix bor-da hovlimizning sathi.

Melivoy. Mahallamizda boy-badavlat kishilar qancha ko'paysa, shuncha yaxshi, qo'ni-qo'shnilar gafsi tegadi. Mirsaf Dovudboevlarning hovlilarini sotib oldi.

Lazokat. Uchala hovlini hammi?

Mirsaf. Uchalasini ham oldik. Lekin yeri uchun oldim. Imoratlarining puturi juda ketib qolgan. Hammayog'ini shiptir bosib ketgan. BulKjdozer bilan surdirib tashlayman.

Melivoy. Lokin ancha-muncha pishiq Qisht chiqadi.

Mirsaf. Pishiq g'ishtni ajratib o'tirishga vaqt qayoqda. Imoratni uch qavatli qilib qurdiraman, yuz kunda pardozdan ham chiqarib, ichiga ko'chib kiraman. (Lazokatga.) Hozir katta, chiroyli hovlilarga kirib, o'zimcha loyiha tuzib yuribman.

Abror. Bizning hovlimiz, imoratimiz qalay, yoqdimi sizga?

Mirsaf. Chakkimas. O'rnak olsa bo'ladigan joylari bor ekan. (Melivoya.) Xo'sh, endi qaytamizmi?

Melivoy. Axir, to'y maslahatiga kirdik-ku.

Mirsaf. Ha, aytganday shunday-a, sal qolsa esdan chiqay debdi.

Melivoy. Xo'sh, sizlarni men bilaman. Butun el-yurt ham biladi. Bir tomondan kimsan Yunusovlar bo'lasiz, ikkinchi tomondan esa Mansurovlar bo'lasizlar. Tagi-taxtli, zoti toza odamlarsiz. Orzu-havasga juda o'ch kishilarsiz. O'g'illi bo'lganingdan buyoqqa orzu-havas ko'reish niyatidasan. Shu niyatingni dilingga tugib kelyapsan, to'g'rimi Abrorjon?

Lazokat (eri uchun javob beradi). To'ppa-to'g'ri.

Melivoy. O'amkasabalar, og'aynilaring, qolaversa, mahalla-ko'y oldida qarzdorsan ham. El-yurtning senga o'tkazib qo'ygani bor. Kunda, kun ora mahallaga nahorgi oshga chiqib turasan.

Lazokat (eri uchun javob beradi). To'ppa-to'g'ri.

Melivoy. Obroying katta.

Lazokat (eri uchun javob beradi). Judayam katta.

Melivoy. Tag'in shuncha yillik obroying kelib-kelib o'g'ling balog'atga yetganida bir pul bo'lib qolmasin, deyman.

Lazokat (eri uchun javob beradi). Xudo ko'rsatmasin. Obroyimiz o'g'limiz tufayli yanada ortishi kerak.

Mirsaf. Shuning uchun o'g'il-qiz o'stiradi-da. (Ayvonning u boshidan bu boshiga borib, hovlini kuzatadi, o'zicha rejalar tuzadi).

Melivoy (Lazokatga). Buning uchun zo'r joyga quda bo'lib, taraqlatib to'y qilish kerak. Dushmanlar kuyib kul bo'lsin, do'stlar quvonib yayrasin.

Lazokat. Bizniyam niyatimiz shunday. Lekin...

Melivoy. Nima lekin?

Lazokat eriga "Siz gapiring deya buyruq qiladi.

Abror. O'g'limming o'z topgani bormish. Lekin topgani bizga yoqmay turibdi.

Melivoy. O'g'ling bekorlarni aytibdi, xom o'ylabdi. Mening "Ibrat mahallamda ota-onasiga yoqmagan qizga uylanishini xayoliga keltirgan yigit bo'lmasligi, bo'lsa, yashamasligi, mahallani bo'shatib qo'yishi kerak. Qirq yillik hayotiy tajribam shuni ko'rsatdiki, o'zi topib uylanganlarning o'ndan to'qqiztasi o'z turmushidan rozi emas, ayniqsa, yoshi ellikdan oshgach, turmushdan noligani-noligan, eri xotinini yomonlaydi, xotini esa erini ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q, agar ularni uy-joy, bola-chaqa, o'g'il-qiz, quanda-andalari, xullas, el-yurtning malomatiga qolish andishasi ushlab turmaganida, bir kun ham birga yashamasdilar. Shuning uchun kelin, kuyovni yoshlar emas, turmush quradiganlar emas, turmushni qurib, oilani yaratib beradigan ota-onalar topishlari kerak. Mirsaf. Ha, onangni... Shunaqa ablahlar qo'limga tushsami, chatanog'ini mana shunday qilib, ikki tomonga yirtib tashlardim. Guldek qiz bolalarini ularning kelajagini o'ylab o'tirmay buzib qo'yuvchilarni otib tashlash kerak. Menga qolsa, shunday qonun chiqarardim.

Melivoy. Abror, inim, o'g'lingga yaxshi tarbiya berolmaganga o'xshaysan.

Abror. Nega, nega bunday deysiz, Melivoy aka?

Melivoy. Axir, unga o'zbekcha tarbiya berolmabsan-da. Birov zaxa qilib tashlagan salqitga ko'ngli chopgan yigitni o'zbek yigitni deyolmayman.

Mirsaf. Men ham shunday fikrdaman. Yigitlik g'ururi bormi o'zi o'g'lingizda!

Abror. Bu zamonning bolasi-da.

Melivoy. Hay, hay, Abror, zamonamizga til tegiza ko'rma. Zamonda nima ayb. Hamma ayb o'g'lingga to'g'ri tarbiya berolmagana o'zingizda. Didini past qilib, qiz bola bilan juvon xotinning farqiga borolmaydigan qilib o'stirib qo'yibsan-ku. Xayf senga, inim. Mirsaf. Men uylanmagan yigit bo'lsam, ikki dunyoda ham, boshimdan zar sochganda ham, katta amal vada qilganida ham juvon xotingga uylanmagan bo'lardim. Bir yigit umrida hech bo'lmasa bir marta qizga uylanib, yigitligini isbotlashi kerak.

Melivoy. Abror, gap faqat sening o'g'lingda emas. Biz yurt kattalari xalqimiz kelajagini o'yashimiz kerak. Bugun sening o'g'ling juvonga uylansa, qiz bilan juvonning farqiga bormasa, ertaga, xudo ko'rsatmasin, mening nevaram shu yo'ldan borsa. Indinga Mirsafoning ukasi, xudo ko'rsatmasin shu yo'lni tutsa. U holda bora-bora qizlardan iffat talab qilinmay qo'yiladi. O'ylab ko'r, qanday dahshat-a. O'zbekni o'zbek qilib turgan, yigitlarimizni yigit, qizlarimizni bokira qilib turgan, qo'ydi-chiqqdini kamaytirib turgan yaxshi odatimizga putur yetadi-ku, axir. Yo'q, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Abrorjon, inim, agar sen o'g'lingni juvon xotingga uylantiradigan bo'lsang, to'yingga aralashadigan odam yo'q. Bor, qayoqqa borsang, boraver, hovlingni sotib, "Ibrat mahallasidan ko'chib ket.

Mirsaf. Men bexabar qolmay, hovlingizni o'zim sotib olaman.

Lazokat. Melivoy aka, kelinimizning juvonligini kim bilib o'tiribdi, o'g'limiz talab qilganidan keyin, yopiqlik qozonni ochmay to'y qilaversak-chi? Xo'sh?

Melivoy. Avvalo, men bilib turib, bunday nomaqulchilikka rozilik berolmayman, vijdonimga qarshi borolmayman, xalqning eng muqaddas qadriyatini, an'anasini oyoqosti qilolmayman. Qirq yillik mahalla raisligim, el-yurtning mena ishonchini toptagan bo'laman. Ikkinchidan, o'zlarining ham xabarlarining bordir, kelin bilan kuyovning qo'shilish kechasida mahalla xotin-qizlar kengashining vakilasi ham kelin yanga, kuyov yanga qatorida mahalla yangasi sifatida guvoh bo'lib qatnashadi. Bizning "Ibratda o'ttiz yildan beri shunday tartib joriy qilingan. Ha, shuning uchun ham, bizning mahallaga duch kelgan odam qizini uzatavermaydi, oxirini o'ylab, el-yurt oldida sharmanda bo'lmasligiga ko'zi yetsa, qiz beradi. Biz ham duch kelgan joydan qiz olmaymiz. "Ibrat - eng avvalo poklik-soflikda ibrat!

Mirsaf. Naqadar go'zal odat-a! Shunday mahalladan hovli qilayotganidan baxtiyorman. Melivoy aka, menga joy olishni dalolat qilganingiz uchun o'la-o'lgunimcha sizdan minnatdorman.

Melivoy. O'zbekchilik rivojiga rivoj qo'shsangiz bo'lgani.

Mirsaf. Albatta, albatta! Uyim bitgach, "Ibratda jome masjid qurilishini boshlatib yuboraman, masjid qoshida nikohxona ham bo'ladi.

Melivoy. Inshoollo!

Lazokat eriga "ha, gapiring ishorasini qiladi.

Abror. Nima qilayki, yolg'iz o'g'lim, o'ta qaysar. Gapiga unashga majburman, Melivoy aka.

Melivoy. Yo'q, o'g'lingni bemaza niyatidan qaytar.

Abror. Qaytarolmayman. Yuragidan uribdi, shekilli.

Melivoy. Yuragidan urgan o'g'ilning qulqoq chakkasiga tortib-tortib yuborish kerak. Ana o'shanda o'kili joyiga tushib, mulla mingan eshshakdek yuvvosh tortib qoladi.

Lazokat. Biror yo'li bormikin?

Melivoy (o'ylanib turgach). Chamasi bir yo'li borga o'xshaydi. O'g'lingni buyoqqa chaqir.

Abror (yon tomonga qarab). Davronjon, o'g'lim, bu yoqqa chiq!

Avvalo estrada qo'shig'i eshitiladi, keyin jazzi yapon magnitofonini ko'tarib, Davron chiqib keladi.

Davron (magnitofondagi qo'shiqni o'chirib, suhbatni lentaga yozib olishga sozlaydi, buni o'tirganlar sezmaydi). Assalomu alaykum.

Melivoy. Vaalaykum assalom... Davronjon, bu Mirsaf akang bo'ladi, mahallamizga ko'chib kelayaptilar.

Davron. Yaxshi.

Melivoy. Davronjon, o'g'lim, dadang Abrorjonning, onang Lazokatbonuning, amakilaring, tog'alaring, butun Yunusovlari Mansurovlarning hurmati, six ham, kabob ham kuymaydigan bir yo'llini topdim. Yurt ustida yuravergach, ko'zing pishib, aqling peshlanib, tajribang oshib, korafka bo'lib, tadbirkor bo'lib ketar ekansan, kishi.

Abror. Qirq yil mahallaga raislik qilibsiz-u, siz korafka bo'lmay kim korafka bo'lisin. O'z sohasining akademigi desa ham bo'ladi sizni.

Melivoy. "Mahalla jamg'armasi o'z xalq akademiyasini tuzmoqchi deb eshitdim. Tuzilsa, meni birinchilar qatori akademik qilib saylashsa ajab emas.

Abror. Inshoollo!

Melivoy. Davronjon, o'g'lim, menga bir fikr keldi: seni avval mohipora, onasi ham o'pmagan bir qizga uylantiramiz.

Davron. Men Sayyoradan boshqasi bilan yashamayman.

Mirsaf. A, oti Sayyorami?..

Melivoy. Davronjon, sen shoshilmay gapimni oxirigacha eshit. Keyin shunga qarab ish tut. Faqat nomiga uylanasan, faqat bir kechagina kelin bilan birga bo'lasan.

Mirsaf. (o'zicha). Bir kecha...

Davron. Xo'sh, undan keyin?

Melivoy. Avvalambor, katta to'y qilib, ota-onangning orzu-havasi ushaladi, qolaversa, "Ibrat mahallasining shaniga dog' tushmaydi, mahalla yangasining imtihonidan ham o'tasan.

Davron. Bular meni zarracha qiziqtirmaydi. (Ketmoqchi bo'ladi).

Melivoy. Shoshma. Gapimni oxirigacha eshit. To'ydan keyin, oradan ikki-uch oy o'tgach, biz uylantirgan xotiningning javobini berasan. So'ragnlarga murosasi kelishmadi, deb qo'ya qolamiz. Keyin sevganining bilan topishasan.

Abror. Mana shuni masalani radikal hal etish desa bo'ladi, yashang, Melivoy aka.

Davron (Melivoya). Amaki, meni kimning qiziga uylantirmoqchisiz?

Melivoy. BuyoQini menga qo'yib beraver...

Davron. Olib bergen xotiningiz ajrashmayman deb turib olsa-chi.

Melivoy. Nega ajrashmas ekan, har kim sevgan oshini ichadi. Senga diyonatli, janjaldan yetti chaqirim yiroq yuradigan, ishonuvchan, taqdirda tan berib, hamma-hammasini Allohdan deb biladigan sodda odamning soddagina qizini topamiz.

Mirsaf. Hozirgi zamonda shunday odamning o'shanday qizi topilarmikin!

Melivoy. Yurtchilik. Topiladi. Keyin qarsillatib gijbadabang to'y qilamiz. Dadang el-yurtga nahorga osh beradi, aziz mehmonlarga to'n kiydiradi. Chaykayu Limuzinlarga tushib, yigirma-o'ttizta mashina bo'lib, ZAGSga borasizlar, kechqurun "Navro'zda nikoh bazmi, tongotar o'yin-kulgi, pul qistir-qistir bo'ladi...

Abror. Artist zotining to'ya yuradiganini ham, to'ya yurmayB-diganini ham taklif qilamiz, ustlaridan pullar sochamiz, dollar qistiramiz.

Melivoy. Shunday qilsang arziydi, axir dunyoga kelib birinchi qilayotgan to'ying. (Davronga). Ota-onang sening to'ying bahona el-yurt qarzini uzishi kerak, aks holda qiyomat qarzi bo'lib gardanida qoladi. To'ylarda o'tib qolgan qarzni faqat to'y orqali uzish mumkin, boshqa yo'li yo'q. Masalaning bu tomonini ham o'yla-da, o'g'lim. Agar boshqa aka-ukalarining bo'lganida, seni bu borada erkin qo'yishim mumkin edi. Afsuski, sen yolg'izsan.

Davron. Baribir men Sayyoraning oldidan o'tishim kerak, keyin shunga qarab sizlarga javob qilaman.

Melivoy. Albatta o'tasan.

Davron. Olib beradigan xotiningiz sudda ajrashmayman deb turib olsa-chi?

Melivoy. Ko'plab sud majlislarini ko'rganman. Eng qulay, eng ommabop ajrashish usuli shuki, sudda "Xotinimga ko'nglim yo'q deysan, "Og'zidan sassiq hid keladi, "Qo'litiqlari terlaydi desang, olam guliston. Kerak bo'lib qolsa, oyingga shunday topshiriq beramanki, u shunday qaynonalik qilsinki, kelinning o'zi bezor bo'lib, o'zi taloq qilishingni talab qiladi. O'a, sen to'yga rozi bo'lsang bo'lgani, qolganini menga qo'yib beraver, o'g'lim. Odamlar qurbi yetsa, joyi bo'lsa, yemishiga chidasa, uyida ot saqlaydi, sigir sog'ib sutini ichadi, qo'y boqib ko'paytiradi. Abrorjon, Lazokatbonu, o'ylaymanki, bitta kelinni ikki-uch oy saqlay olarsizlar. Kelinchak degani beminnat xizmatkor, tekin cho'ri degani-ku. Sen, Davronjon, uylangach, yanada erkin bo'lasan, ota-onang hadeb ichki ishlaringga aralashavermaydi, ko'p tergashga haqqi ham qolmaydi, chunki xotining bor, mustaqil shaxssan. Mazza qilib ayshingni surib yuraverasan.

Davron. Sayyora...

Melivoy. Yana Sayyora deysan-a! Sayyorang hozircha zapasda tura turadi.

Abror (chapak chalib yuboradi). Yashang, Melivoy aka! Chindan ham tadbirdor bo'lib ketibsiz. Bor, o'g'lim, uydan ikki to'n olib chiq.

Davron magnitofonni ko'targanicha ichkariga kirib ketadi.

Lazokat. Endi kimga quda bo'lamiz?

Melivoy. Men bugun tunda to'y daftarini ko'ray-chi, ertaga telefonda aytaman.

Mirsaf (Abrorga pul beradi). Bu mendan sizga to'yona. Ikki yuz ellik dollar. Miqdorini aytganim uchun ajablanmang. Odatim shuki, pul berganimda qanchaligini aytaman, pul olganimda albatta o'sha zahotiyoy sanab ko'raman.

Davron ikkita to'n ko'tarib ayyvonga chiqadi.

Lazokat. Asl tijoratchi shunday bo'ladi-da.

Abror. Bu xamir uchidan patir. (Bitta to'nni Melivoja, ikkinchisini Mirsafoga kiygizadi).

Melivoy. Ishimizni Allohning o'zi o'nglasin. Omin, Allohu akbar!

Hamma fotiha o'qiydi.

### Beshinchi Ko'rinish

Manzuraning kvartirasi. Birinchi ko'rinishdagi manzara. Zal. Manzura, Sayyora, Davron divan va kreslolarda hordiq chiqarib o'tirishibdi. Davron gapini tugatayotganida parda ochiladi, uning qo'lida o'sha kungi magnitofon.

Davron. ...Uyimda bo'lgan gap shu. Bilasizlar, men yolg'on gapirmayman. Gapimning isboti uchun, mana, magnitofon qo'yib beraman, eshitinqlar.

Manzura. Shartmas... Senga ishonamiz, o'g'lim. Shu, rost gapirganing uchun ham menga yoqib qolding. Bo'lmasa, bu uyga qadamingni bostirmasdim.

Sayyora. Oyi, Davron magnitofonni qo'yaversin, menga qizig'-da...

Manzura. O'a, mayli.

Davron magnitofonni qo'yadi.

Melivoyning ovozi... Davronjon, o'g'lim, menga bir fikr keldi: seni avval mohipora, oyisi ham o'pmagan bir qizga uylantiramiz. Davronning ovozi. Men Sayyoradan boshqasi bilan yashamayman.

Manzura. Yashavor o'g'lim! (Sayyoriga). Mardlik mana bunday bo'libdi!

Mirsafoning ovozi. A, oti Sayyoram!

Manzura. Bilib turib so'raydi-ya, tullak.

Melivoyning ovozi. Davronjon, sen shoshilmay gapimni oxirigacha eshit. Keyin shunga qarab ish tut. Faqat nomiga uylanasan, kelin bilan faqat bir kechagina birga bo'lasan.

Mirsafoning ovozi. Bir kecha...

Davronning ovozi. Xo'sh, undan keyin?

Melivoyning ovozi. Shoshma, gapimni oxirigacha eshit. To'ydan keyin, oradan ikki-uch oy o'tgach, biz uylantirgan xotiningni qo'ysan-u, sevganing bilan topishasan.

Davronning ovozi. Baribir men Sayyoraning oldidan o'tishim kerak. U nima desa shu.

Davron magnitofonni o'chiradi.

Manzura. O'g'ilginamdan o'zim aylanay. (Qiziga). Sen Layliyu bu Majnun.

Sayyora (Davranga, kesatib). Bir kechalik kuyov.

Manzura. Sayyora, Davronjon chindan ham senga sadoqatli ekan. Men to'la ishonch hosil qildim. Eng muhimi shu. Buning qadriga yetishimiz kerak. Ayniqla sen. Davronjon, qizim seniki. (O'z ko'ksiga chapanilarcha bir uradi). Gap tamom... Sayyora, biz Davronjon bilan mashinasida bir joyga borib kelamiz. Davronjonning haydashi menga yoqib qoldi, silliq haydaydi, odamni ortiqcha urintirmaydi, qancha minsang ham charchamaysan, kishi.

Sayyora. Yana biznesmi?

Manzura. Ha, qizim, yana biznes. Ertaga nima bo'ladi, hech kim bilmaydi, hozir yo'li ochiqligida ishlab qolish kerak. Yura qol, Davronjon. (Chiqadi)

Sayyora (Davranga). Oyimning shaxsiy shofyori bo'lib qolyapsan.

Davron. Nima qilay?

Sayyora. Keyin aytaman. Hozir bora qol.

Davron. Eshikni qulflab o'tir.

Sayyora. O'zimni qulflab o'tiraman... Rashkchi bo'lma, men rashkchilarni juda yomon ko'raman.

Davron. Joning qo'limda, buni bilib qo'y, bir boshga bir o'lim. Yana shuniyam yaxshilab bilib qo'yki, bepadarlar uzoq yashamaydi. Sen ham, men ham.

Sayyora. Jinnilik qilma, oyim kutib qoldi, bora qol.

Davron. Men qaytib kelaman, oying balki biror joyda tunagani qolar. (Magnitofonni ko'tarib chiqadi).

Sayyora (o'zicha). Boshga bitgan balo bo'ldi-da, bu saplak. Oradan ko'tarib tashlash kerak, bo'lmasa menga tinchlik bermaydi. Bashang kiyungan Mirsaf voqor bilan kirib keladi. Uni ko'rib Sayyora yal-yal yonib ketadi, azbaroyi sevinganidan irg'ishlab, chapak chalib yuboradi.

Sayyora. Mirsafo aka! (Yugurib borib, Mirsafoning bo'yniga osiladi, yuz-ko'zlaridan, bo'ynilariyu yelkalaridan, ko'kraklariyu qo'llaridan ehtiros bilan o'pib, o'pib tashlaydi, keyin ko'ksiga bosh qo'yib jim qoladi).

Mirsafo avvaliga haykaldek qotib turadi, keyin Sayyoraning harorati vujudiga o'tib, uning sochlaridan asta silaydi .

Sayyora (esiga tushib qolib, Mirsafo quchog'idan shartta chiqib, tisarilib). Ismimni bilmay qolibsiz?

Mirsafo. Nimalar deyapsan? Tushuntiribroq ayt.

Sayyora. Oti Sayyorami debsiz.

Mirsafo. Ha, ha, esimga tushdi, bir eski qadronim bilan o'sha sening mishiqingnikiga kirib qolibmiz. (Sayyorani bag'riga tortib, belidan quchadi). Shu degin...

Sayyora (gapni bo'lib). Birinchidan, Davron meniki emas. Oyimga misoli bir xizmatkor bo'lib yuribdi.

Mirsafo. Sening ilinjingda.

Sayyora. To'g'ri... Ikkinchidan, Davron mishiqi emas, karatechi ekan. Meni juda yoqtirib qolgan. O'ta rashkchi. Shu turishimizda ko'rса ikkimizni ham o'ldirib qo'yishi mumkin.

Mirsafo (kulib). Millioner Mirsafo ikki qo'lini qovushtirib qarab turaverar ekan-da. Uning himoya vositasi ham bor. Mana.

(Qo'ynidan revolKjver olib ko'rsatadi, keyin yana yoniga solib qo'yadi). Sira qo'rhma, jonim.

Sayyora. Baribir Davronni oradan olib tashlash kerak.

Mirsafo. Buniyam vaqt kelib qolar...

Sayyora. Yangi hovli sotib olibsiz, mengami?

Mirsafo. Bunisi birinchi xotinimga. Senga o'rikzor tomondan olib beraman... Vey, menga qara, mishiqing hamma gapni kelib senga yetkazibdi-da, zo'r chaqimchi chiqib qoldi-ku.

Sayyora. O'sha suhbatni magnitofonga yozib olgan ekan, opkelib qo'yib berdi.

Mirsafo. Men shoxida yursam, u bargida yuradigan ustasi farang, ishni puxta qiladigan ekan, bo'ldi, bugundan boshlab uni mishiqi demayman. O'z yigitlarim davrasiga qo'shsam arzir ekan.

Sayyora. Unda men davrangizdan chiqishim kerak bo'ladi-ku.

Mirsafo. Masalaning bunday nozik tomoni ham bor. Aytganday, o'sha suhbat yozilgan lentani nega endi senga qo'yib berdi.

Sayyora. Menga sadoqatli ekanini bir ko'rsatdi-da. Umuman, uyida nimaiki voqeа ro'y bersa, menga yetkazib turadi, uning uyida, qarindosh-urug'larinikida ro'y berayotgan hamma gaplardan oyim ham, men ham to'la xabardormiz.

Mirsafo. E, attang, bu odati chatoq ekan. Gap tashigan B yigit emas, umuman odam ham emas. Boyagi gapimni qaytib oldim.

Unday mishiqlarni xos yigitlarim davrasi uyoqda tursin, hatto oddiy hammollikka ham olmayman. Senga ikkinchi topshiriq shuki, Davrondan o'sha lentani ol, "sadoqat ramzi sifatida menga esdalik qilib ber degin, xo'pmi?

Sayyora. Xo'p (Mirsafoning bo'yniga osiladi). Uning o'zidan qachon qutulamiz, hadeb halaqit beraveradi, hozir ham jonim halak, hali kelaman, deb ketgan.

Mirsafo. Bunday nozik ishlar tadbir qo'llash bilan bajariladi, jonim... Uni boshqa birontasiga uylantirib qo'ymoqchimiz, bu g'oya mendan chiqdi, mahalla raisi Melivoy esa ijrochi bir kimsa, xolos. Ko'rdingmi, tentakkinam, orqavaroqdan ish bitirib, seni himoya qilib yuribman. Endi tushundingmi?

Sayyora. Endi tushunib yetdim, o'zim sizdan aylanib ketay. (Mirsafoning bo'ynidan qattiq quchoqlaydi).

Mirsafo (Sayyorani o'zidan sal bo'shatib). Xo'sh, birinchi topshirig'imni bajardingmi?

Sayyora. Deyarli hamma joyni qidirib ko'rdim, o'sha tilxat topilmadi. Lekin oyimning yotog'idagi havo yo'li tuynugiga bo'yim yetmadni. Yuring, kirib bir urinib ko'raylik-chi.

Mirsafo. Yaxshi, qani boshla.

Qo'ltiqlashib o'ng tomonga yuradilar. Sayyora yo'l-yo'lakay bir qo'li bilan xalati tugmalarini yecha boshlaydi.

## Uchinchi Parda

### Oltinchi Ko'renish

Burhoniddin ko'hna hovlisi. Imoratlari sharq uslubida va baland qilib qurilgan. Oldi panjarali va uzun-uzun ustunlari qovurqali. Sirdan qaraganda hovli manzarasi yangi qurilgan yoki endigina tamirdan chiqarilgan jome masjidini eslatadi.

Burhoniddin to'g'ridagi ayvonda qat-qat to'shalgan ko'rpaçchada davotga qo'yilgan Qur'onи karimni tilovat qilib o'tiribdi.

(Ijrochining imkoniyatiga qarab o'sha sura o'qiladi). Yonidagi xontaxta usti noz-nematga to'la, choynak va piyolalar bor. Choynak paxtali duxoba yopqich bilan yopib qo'yilgan.

Melivoy bilan Mirsafo kirishadi. Tilovatni eshitib, yurishdan to'xtab, jim qolishadi. Tilovat tugagach, fotiha o'qiladi.

Mevlivoy. Hoy, kim bor? Beizn kirayapmiz, ishqilib qochadigan odam yo'qmi?

Mirsafo. Hozir qochadigan odam qoptimi?

Burhoniddin (o'rnidan turadi). Ilgari qochadigan odamlar bor edi, hozir yo'q. Kelavingrlar. (Melivoy bilan Mirsafoni tanib.) Ie, ie, Melivoy?! Mirsafo? (Mehmonlar istiqboliga peshvoz boradi).

Melivoy. Assalomu alaykum, Burhoniddin aka!

Mirsafo. Assalomu alaykum.

Burhoniddin. Vaalaykum assalom. Xush kelibsizlar, eski qadrdonlarim!..

Quchoqlashib ko'rishadilar.

...Qani, buyoqqa chiqinglar, marhamat.

Uchovi xontaxta atrofidan joy olishadi.

Melivoy. Omin, shu xonadonda yaxshi to'ylar bo'lsin, Allohu akbar!

Burhoniddin (mehmonlarga choy quyib beradi). Qani, dasturxonga marhamat.

Melivoy. Burhoniddin aka, bizlar sinashta odamlarmiz. Shu sababli darhol asosiy maqsadga o'taveraman. Biz qulchilikka keldik, Burhoniddin aka.

Burhoniddin. Qizlik uy misoli bir saroy. Shoh ham, gado ham kelaveradi. Xush kelibsizlar. Sizlardek tayinli odamlar sovchi bo'lib kelganidan, o'rta ga tushganidan boshim ko'kka yetdi. O'yaymanki, yaxshi, tagi-taxtli, zoti toza yigitni dalolat qilasizlar.

Melivoy. Xuddi shunday. Kuyov bo'l mish ota tomonidan Yunusovlardan, ona tomondan esa Mansurovlardan.

Burhoniddin. Bo'ldi, bas, ortiqcha izohning hojati yo'q. Men Yunusovlarni ham, Mansurovlarni ham ko'pdan beri bilaman.

O'shalarning o'g'li yoki nevarasi bo'lса, qizimni berganim bo'lsin. Qolaversa, o'rtaga sizlarday eski qadrdonlarim tushib turibsizlar. Sizlar yomon yigitni menga kuyovlikka ravo ko'maysizlar. Men sizlarga ishonaman. Qizim esa menga ishonadi.

Melivoy. Hammamiz esa Allohga ishonamiz.

Burhoniddin. Qizim nima desa shu bo'ladi. Lekin qizim mening izmimdagi qiz, yuzimga oyoq qo'yishini hatto xayolimga ham keltirmayman.

Mirsaf. Sizdek otaning farzandi bo'ladi-yu, shunday nurli xonadonda o'sib-ulg'ayadi-yu, odobsiz bo'larmidi. Agar o'g'lim balog'atga yetgan bo'lganida, o'zim sizga quda bo'laqlardim.

Burxoniddin. Nevara qizlarim ham bor... Ikkinchidan, to'rt o'g'il uylantirib, to'rt qiz chiqargan bo'lsam-da, bu uyda birinchi kenja qizim bilan turamiz, o'g'illarimning hammasi hovli olib berib, qozonini boshqa qilib chiqarib yuborganman. Bolalarimning onasi vafot qilganiga uch yilcha bo'ldi...

Melivoy. Xabarimiz bor, duoi fotihaga, yigirma, yil oshlariga kelganmiz.

Burhoniddin. To'g'ri, to'g'ri... Erkak kishiga tanmahram kerak qabilida yana bir uylangan edik, lekin oradan ko'p o'tmay, bu ojizamiz bizni tashlab ketib qoldi, (urg'u berib) urishsiz, janjalsiz.

Mirsaf (o'rnidan turib ketadi). Nahotki?! Nahotki, shunday uy-joyni, shunday sharoitni tashlab ketib qolgan bo'lса, yashab yuravermaydimi? Insofi yo'qroqmikin-a?

Burhoniddin. Yo'q, unda ayb yo'q. Garchi u bizni tashlab ketgan bo'lса ham, men imonimni yutib yolg'on gapirmasligim kerak. U pokiza, halol ayol edi. Shu sababli ham bu xonadondan ketdi. Men jisman uning tengi bo'lolmay qoldim, yoshlарimiz o'rtasidagi katta tafovut ham tasir qildi, albatta, buning ustiga mening qandli diabet dardiga mubtalo bo'lib qolishim ham o'z ishimi qildi. Agar u bu uy-joylarni, mendan qoladigan katta meros, mol-mulkni o'ylaganida edi, shu yerda yashab yuraverardi-yu, lekin noplok yo'lga qadam qo'yib qo'yishi ham ehtimoldan uzoq emas edi-da. Boyaqish shundan cho'chidi, shekilli, oddiy, lekin pok yo'lni tanlab ketdi. Mayli, u o'z tengi bilan baxtini topib ketsin, halol farzandlarning onasi bo'lsin.

Melivoy. Burhoniddin aka, Hizrsifat, bag'ri keng odamsiz-da

Mirsaf. Burhoniddin aka, sizga yana bitta savol: odatimizga ko'ra bizda ko'p xotinlikka yo'l qo'yilgan-ku, fohishalik qattiq qoralangan, xo'sh?

Melivoy. Tesha tegmagan savol!

Burhoniddin. Bu yana o'sha narsaga B haromilarni dunyoga keltirib qo'ymaslik maqsadiga borib taqaladi, inim. Axir, faqt ayol kishi tug'adi-da.

Melivoy. O'ta mantiqli javob.

Mirsaf. Bo'lди, tan berdim, qoyil.

Burhoniddin. Xo'sh, men sizlarga aytasam, beva qolganimni bildirib, bu bilan demoqchimanki, qizimga o'rniga keltirib mol-mulk qilolmayman, garchi pulim yetarli bo'lса-da, qiz bola uchun onaning o'rmini hech kim o'tay olmaydi, ayniqsa turmushga chiqarishda.

Melivoy. Shartlaringiz shuginami!

Burhoniddin. Shu, xolos.

Melivoy. Bizga berilgan vakolat yuzasidan ikkala shartingizni ham qabul qildik. Xo'sh, qiz bilan yigitni qachon uchrashadiramiz?

Mirsaf. Xayrli ishni orqaga surib bo'ladi, irimi shunaqa.

Burhoniddin. To'g'ri. Bo'lmasa, ertaga kechqurun soat oltida Anhor bo'yida uchrashadiramiz. O'rda ko'prigining bu tomonida, o'ng sohilda.

Melivoy (kulib). O'sha joylar kelin-kuyovlar uchun bir pakka bo'lib qolibdi o'zi.

Burhoniddin. Ko'pdan beri shunday. Buni qiz chiqargan, o'g'il uylantirgan har bir ota-onan biladi.

Mirsaf. Burhoniddin aka, aybga buyurmaysiz-a, menda yana savol tug'ilib qoldi. O'ammaniym oilaviy turmushi tekis kechavermaydi. Bazilar ajralishga majbur bo'lishadi, boshqa birovlar beva qolishadi, keyin ikkinchi, uchinchi marta turmush qurishga to'g'ri keladi. Xo'sh, u dunyoda, masalan, ikki marta turmush qurgan ayol qaysi eri bilan bo'ladi yoki uch marta uylangan erkak qaysi xotini bilan bo'larkin?

Melivoy. Mutlaqo yangi savol.

Burhoniddin. Muqaddas kitobda yozilishicha, kishi qaysi oilasi bilan yaxshi yashagan bo'lса, u dunyoda o'sha eri yoki xotini bilan bo'lар ekan.

Melivoy. Bu javobda ham oilaviy tinch-totuvlikka, insonB-parB-varlikka chorlash ufurib turibdi-ya. Ofarin!

Mirsaf. Javobdan to'la qoniqdim. Bu haqda o'rtoqlarga gapirib yuraman... Burhoniddin aka, tanmahramsiz ancha qiyngalgan ko'rinasiz, katta to'ydan keyin kichik to'y qilishga to'g'ri keladi-ku.

Burhoniddin. Yo'q, qurigan daraxtni yana sug'orishga na hojat. Men erkak sifatida qurib bo'libman... Endi bas... Bir faylasufning kitobida o'qigan edim. Na mol-mulk, na nasl-nasab, na shon-shuhrat, na salobat qalamkashni adabiyot olamiga olib kirib, xalqning ardog'iga sazovor qila olmaydi. Shunga o'xhash er erkak bo'lmasa xotin kishini zanjirga solib ham ushlab qolib bo'lmaydi. Bir kerakli urinishdan bo'lak barcha urinishlar behuda. Men buni o'z tanamda his qilib ko'rdim... Mabodo shu bo'lajak kenja kuyovim, bo'lajak qudalarim rozi bo'lishsa, yoshlarni bu yerga ko'chirib kelaman, bundan buyoqqa umrimni nevara boqishga, toat-ibodat qilishga bag'ishlamoqchiman.

Melivoy. Buyam yaxshi niyat. Ayniqa yolg'iz odam bekor qolmasligi kerak.

Burhoniddin. Shuni aytin, inim. Dunyoda yolg'iz qolgan odamlar son mingta. Lekin ularning ko'pchiligi o'zlarining yolg'izliklarini bilishmaydi, bilishsami, qattiq iztirobda qolishardi. Yomoni shundaki, yolg'iz qolganini, yolg'iz ekanini bila turib yashash bu dunyoning do'zaxi deb bilaman... Yolg'iz odamning qalbi bo'm-bo'sh, hamisha huvvullab yotadi... Ayniqsa, yolg'izlikda asr paytidan to xuftongacha bo'lган vaqtning o'tishi qiyin kechadi, hadeganda o'ta qolmaydi, yaqin odaming yoningda bo'lishini, ko'zlariga termulib suhbatlashib o'tirishni qo'msaysan. Afsuski, ketgan qaytib kelmaydi. Tirikligida qadrondlarning qadriga yetaylik, inilarim.

Mirsaf. Burhoniddin aka, sizni hamma azaldan o'qimishli, bilimdon odam deb bilib, hurmatlab kelardi. Endi bilsam faylasuf ham bo'lib ketibsiz-a.

Burhoniddin. Unchalikmas... Axir salgina fikrlay olish qobiliyatiga ega bo'lsang, yolg'iz qolishning o'zi seni faylasuflarga tenglashtirib qo'yishi mumkin ekan. O'tmishda aziz-avliyolar behudaga chillaxonada qirq kun yolg'iz o'tirib, uzlatga chekinmas ekanlar-da...

Melivoy. Bo'lmasa, endi bizga ruxsat. Kelishib oldik: ertaga soat oltida Anhor bo'yida yoshlar uchrashadilar... Yigitning oti Davron... Qiz poshshaning ismi nima?

Burhoniddin. Muyassar.

Melivoy. Omin, Muyassar qizimizning baxti mukammal bo'lsin! Allohi akbar!

Fotiha o'qiydilar.

Burhoniddin. Xush ko'rlik, azizlar (qo'lini ko'ksiga qo'yadi).

Melivoy. Xushvaqt bo'ling. Yigit bilan qiz uchrashuvini yangalari uyuştiraveradilar. Xotin-xalaj bu ishga juda usta.

Mirsaf (Burhoniddin qo'liga konvert beradi). Mendan sizga to'yona.

Burhoniddin. Ie, bu qanaqasi bo'ldi? Hali to'y u yoqda tursin unashganimiz ham yo'q-ku.

Mirsaf. Hali unashasiz ham, to'y ham bo'ladi. Lekin men to'y kunlari chet el safarlarida bo'lib qolishim mumkin... Ikki yuz ellik dollar, "Al-Mashriq magazinidan u-bu narsa olishingizga asqotib qolar... To'yna miqdorini aytayotganimdan taajjublanmang, Burhoniddin aka. Odatin shuki, pul olsam, sanab ko'raman, pul bersam, qanchaligini aytib topshiraman.

Burhoniddin. Ha, asl savdogarlar avlodidan bo'lasiz-da.

### Yettinchi Ko'rinish

Anhor bo'y, xiyobon. U yer-bu yerga suyanchisiz o'rindiqlar qo'yilgan. Burhoniddin Muyassar bilan suhbatlashib kiradi. Uning egnida oqish kostyum-shim, oq ko'ylak, qora galstuk, oyog'ida qora tuqli. Qo'lida donalari yirik-yirik qahrabo tasbeh va hassa.

Muyassar ko'krak burma atlas ko'yakda, sochlari qirq koqil qilib o'rilgan, qo'lida "O'tkan kunlar romani.

Burhoniddin. Ne qilaylikki, qizim, onang dunyodan erta ko'z yumib ketdi. Bo'lmasa, men seni bunday uchrashuvga yetaklab kelarmidim, onangning o'zidan ortmasdi, bunday ham quvonchli, ham hayajonli ishlar... Opalaring o'zlaridan ortishmaydi.

Kennoyilaring ahvoli o'zingga malum. Qolaversa, bunday nozik ishlarni birovlarga oldindan bildirib bo'lmaydi. Irimi shunaqa.

O'ali bo'ladiqan ishmi bu, bo'lmaydigan ishmi bu, bilib bo'lmaydi. Balki sen yigitga yoqmassan, balki yigit senga yoqmas. Buni umr savdosi deydilar, buni taqdiri azal deydilar, yulduzlarining bir-biriga mos tushsa, olam guliston, bo'lmasa yopiqliq qozon yopiqligicha qolaveradi... Qariganim rostga o'xshaydi, juda ezma bo'lib ketyapman... (Qo'l soatiga qarab oladi). Marifat xol Lang bilan soat besh yarimda shu yerda uchrashishga kelishgan edik, u senga hamrohlik qilmoqchi edi, ham yigitning yurish-turishi, bo'y-bastini kuzatib, iloji bo'lsa bir gapga solib ko'rmoqchi edi. Xola degan qiz bola uchun onasidan keyingi eng yaqin odam hisoblanadi-da... Buni qaraki, kelishilgan vaqtadan o'tdi hamki, hamon xolangdan darak yo'g'-a?

Muyassar. Kelib qolarlar. Transportlar chatoq-ku, dada.

Burhoniddin. Hali zamon yigit kelib qoladi, soat ham oltiga yaqinlashdi. Mening bu yerda turishim o'zi noqulay, odobdan emas ham. Men huv anavi tepalikdag'i o'rindiqa dam olib o'tiraman. Sen shu yerda sayr etib yur, xohlasang anavi o'rindiqa "o'tkan

kunlaringni o'qib o'tir... Xol Lang albatta kelishiga ishonaman. U lafzli odam, axir rahmatli onangning bir tug'ishgan singlisi-ku.

Lekin dunyo tasodiflarga to'la, mabodo xol Lang kelmasa, yigit bilan o'zing sira tortinmay gaplashaver, tog'asining xotini B-kennoyisi bilan kelmoqchi ekan, ismi Davron... Davronjon. Dadil bo'l, qizim. Men tepada seni kutib o'tiraman. Keyin uyga birga qaytamiz. (Chiqadi).

Muyayasar o'rindiqlardan biriga borib omonatgina o'tiradi-da, kitobiga ko'z yogurtira boshlaydi.

Davron va Sayyora yalt-yult kiyimda qo'lтиqlashib kirib kelishadi, ikkalasi ham qora ko'zoynakda.

Sayyora (ko'zi Muyassarga tushib, yurishdan to'xtaydi). Shu bo'lsa kerak... Sen o'tib ketaver, keyin qaytib kelasan, avval men bo'lajak kundoshim bilan tanishib olay-chi.

Davron. Marhamat. (Chiqadi).

Sayyora Muyassarning yoniga borib o'tiradi. Muyassar avvaliga uni sezmaydi, keyin Sayyoraga ko'zi tushadi.

Muyassar (Sayyoraning o'zini kuzatayotganini ichki bir tuyg'u bilan, ziyraklik bilan sezib). Assalomu alaykum.

Sayyora. Vaalaykum salom...

Muyassar. Sezib turibman, siz meni kuzatyapsiz. Siz...

Sayyora. Xo'sh, men kimman?

Muyassar. Siz Davron akaning kelinoysi bo'lasiz, topdimmi?

Sayyora. Siz Muyassar bo'lasiz-a?

Muyassar (erga qarab). Ha.

Sayyora. Davron shu yerda. Men uni bu yoqqa chaqirib yuboraman. (Chiqadi).

Muyassar Sayyora ketgan tomonga qarab qoladi. Bashang kiyangan, sochlari silliq taralgan Halimxon guldasta ko'tarib, yengil odimlab kirib keladi. Muyassar uni Davron deb o'yab, o'rnidan turadi.

Muyassar. Assalomu alaykum!

O'alimxon (butun vujudi tebranib). Vaalaykum assalom. (O'z yo'lida ketaveradi).

Muyassar. Men Muyassarman. Siz...

O'alimxon (to'xtab). Men O'alimxon bo'laman. Sizning kutganingiz boshqa. Mening kutganim boshqa... Men Matlubaxonni ketyapman. Kecha shu yerda bizlarni uchrashibirib qo'yishdi, bugun ikkinchi uchrashuvimiz bo'lmoqchi... Sizniyam omadingizni bersin. (Chiqadi).

Muyassar. Bu yer odam bozori ekan-a. (Borib joyiga o'tiradi, yana kitobni ko'zdan kechira boshlaydi).

Davron tomoq qirib, manoli yo'talib kiradi. Muyassar buni sezib, o'rnidan turadi, u tomonga qaraydi.

Muyassar. Assalomu alaykum.

Davron. Vaalaykum assalom. Men Davronman.

Muyassar. Men...

Davron (gapni bo'lib). Sen Muyassar bo'lasan, shundaymi?

Muyassar. Ha. (Yerga qaraydi).

Davron uning yoniga borib, taqalib o'tiradi. Muyassar seskanib ketib, sal nari suriladi. Davron Muyassarni boshdan-oyoq diqqat bilan kuzatadi, Muyassar Davronning ko'z taqibidan o'zini noqulay sezib, necha marta qo'li bilan ko'ylagi etaklarini pastga tortib-tortib qo'yadi.

Davron o'ng qo'lini Muyassarning chap soni ustiga qo'yadi. Muyassar cho'chib ketib, uning qo'lini sonidan turtib tashlaydi.

Muyassar. Voy, nima qilyapsiz?

Davron. Kitobingni ko'rmoqchiman, qani menga berib tur-chi, qanaqa kitob ekan?

Muyassar. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlari.

Shu payt bir tomonda Lazokat bilan Abror ko'rinishadi, Davron bilan Muyassarning birga o'tirishganidan sevinib, "ishlar besh degan manoda bir-biriga bosh barmoqlarini ko'rsatishadi-yu, asta orqalariga tisarilib, g'oyib bo'lishadi, buni yoshlardan sezishmaydi.

Davron (kitobni oladi-yu, lekin unga qaramaydi, Muyassarga boqadi). Hali bunaqa kitoblarni o'qib turaman degin?

Muyassar. Ko'p o'qiymen.

Davron. Sevasanmi?

Muyassar (bunday savol qarshisida esankirab qoladi). Nimani... Tushunmadim.

Davron. Kitob o'qishni sevasanmi deyapman.

Muyassar. Ha, judayam.

Davron. O'zing qaerda o'qiysan, yoki ishlaysanmi?

Muyassar. Bu yil kollejni bitirdim. Hujjatlarimni tibbiyot akademiyasiga topshirdim. Jarroh bo'lmoqchiman. Oyimlarni noto'g'i operatsiya qilib qo'yishdi, bo'lmasa hali tirik bo'lardilar. Shuning uchun jarroh bo'lishga ahd qildim.

Davron. Hm, juda dadil ko'rinasan-ku. Imtihonlar test bo'yicha bo'ladi. Qo'rqmaysanmi?

Muyassar. Yo'q. O'zingiz o'qiysizmi, ishlaysizmi?

Davron. Menmi... Men sharqshunoslik institutida o'qiymen. Shu kuzdan boshlab ikkinchi kursda.

Chap tomonda Burhoniddin ko'rinaldi, yoshlarning suhbatlashayotganidan mammun bo'lib, hassasini qo'ltiQiga qisganicha duo qilib fotiha o'qiydi: "Iloyo, yoshlarning yulduzi yulduziga mos tushsin. Burhoniddin tisarilib, ko'zdan Qoyib bo'ladi, uni yoshlardan sezishmaydi.

Muyassar. Kennoyingiz qaerga ketib qoldi?

Davron. Kennoyim?! Qaysi kennoyim?

Muyassar. Haligina meni gapga solib o'tdilar-ku, ko'zoynaklari siznikiga o'xshaydi.

Davron. Ha, umi? U sen bilan menga muzqaymoq olib kelgani ketdi, hozir kelib qolsa kerak. Birgalashib muzqaymoq yeymiz.

Muyassar. Rahmat. Men endi boray. Dadam anavi yerda meni kutyaptilar, birga ketamiz uyg'a... Xayr.

Davron. Ko'rishguncha... (Orqasidan kuzatib qoladi).

Sayyora (gapirib kiradi). Davron, namuncha mahliyo bo'lib qolmasang. Yuragingdan urdi shekilli.

Davron. Yo'g'-ey.

Sayyora. Yuragingdan ursa nima bo'pti.

Davron. Senga yoqdimi?

Sayyora. Voy, tavba, menga yoqish-yoqmasligining nima ahamiyati bor? Uylanadigan menmas, sen-ku. O'zingga yoqdimi?

Davron. Bir kechaga yayar.

Sayyora. Unaqa dema, yaxshi niyat qil, jinnilik qilma. Binoyidek, oyisi ham o'pmagan qiz ekan.

Davron. Ana xolos, kundoshingni maqtayapsanmi?

Sayyora. U kundoshim emas, sen...

Davron (gapning davomini ayttirgani qo'yimaydi). Men senikiman. (Sayyorani belidan quchoqlab, mahkam bag'rige bosadi).

Boshqasi bilan ishim yo'q. Lekin gap-so'zlariningdan, oyoq olishingdan bilib yuribman. Meni Muyassarga oshirib yuborib, o'zing Mirsafa bilan bo'lib ketmoqchisan...

Sayyora. Haqorat qilma meni!

Davron. Lekin xomtama bo'lib yurma, unday xomxayollarni miyangdan mutlaqo chiqarib tashla. Mabodo biror nimani bilib qolsam, senga aytganman: bir boshga bir o'lim, avval ikkovingni chavaqlab tashlayman, keyin o'z yuragimga pichoq sanchaman. Bilasan, bu dunyoda men uchun yurakdan kuyadigan odamim yo'q, shu sababli men uchun o'lim cho't emas, bu dunyo bilan bog'lanmagan mendek odam uchun bu dunyodan ketish qiyin emas, yani o'lim unchalik dahshatlidem.

Sayyora. Gaplarining namuncha sovuq bo'lmasa, Davron, bag'ring issiqliqning kuylari. (Davronning bag'rige suquladi).

Davron. Menga makringni ishlatma, qani dala hovlimizga ketdik. (Qo'lidan qattiq ushlab olib chiqib ketadi).

Boshqa tomondan esa Halimxon hamon guldstasini ko'targanicha uyoq-buyoqqa alanglab kirib keladi.

Halimxon. Voy tovba, soat yettiga qarab ketdi-ku, hamon Matlubaxonidan darak yo'g'-a. Soat oltidan kechikmay kelaman deb vada beruvdilar-ku, kuni kecha shu yerda. Nima bo'ldiykin-a, yoki kasal bo'lib qoldilmaykan?.. Bilmadim, bilmadim... Asl sababini bilmadim... O'zi peshonaginam sho'r ekan. O'ar gal qizlar bir uchrashuvga chiqishadi-ku, ikkinchi uchrashuvga kelishmaydi. O'zim bo'sh-bayovman-da. Bir uchrashuvdayoq o'zimga rom etolmayman... Yo'q. Matlubaxon oldin uchrashganim qizlarga sira-sira o'xshamaydilar. Kecha ishonch bilan "ertaga kelaman degan edilar, men juda-juda ishongan edim. Yana picha kutay, Matlubaxon kelib qolsalar ajabmas... E, xudo, o'zing men boyaqish bandangni noumid qilma. Matlubaxonning ko'ngliga rahm sol. (Chiqadi). Boshqa tomondan Burhoniddin bilan Muyassar gaplashib kirishadi.

Burhoniddin. Uzoqdan ko'rdim, yigitning bo'y-basti senga juda munosib, qizim. To'g'ri, molning olasi tashida, odamniki ichida, deydi ota-bobolarimiz. Yigitning ichi qanaqa, dilida ne o'ylari bor, buni Yaratgan egamdan o'zga hech kim bilmaydi. Lekin tagitaxti toza odamlarning farzandi ekan, bir tomondan kimsan Yunusovlar, ikkinchi tomondan kimsan Mansurovlar. Men ko'proq yigitning ana shu zoti ulug'ligiga uchyapman. Insoniyat shunday yaratilganki, qizim, qoni toza odam, albatta bir joydan yorib chiqadi, insofli, diyonatli bo'ladi, mabodo biron sabab bo'lib adashib qolsa, oradan ko'p o'tmay yana to'g'ri yo'lga tushib oladi, yiqlisa, yana baribir bir kun qaddini rostlaydi.

Uzoq umrimda men ne-ne odamlarni uchratmadim. Halollikda, poklikda, insofililikda xosiyat ko'p ekan. Bunday fazilatlar faqat qoni toza odamlardagina bo'ladi, haromillardan xudoning o'zi asrasin. Ha, aytganday, oraga uncha-muncha odamlar emas, kimsan Melivoy, kimsan Mirsafolar tushyapti, bu katta hurmat, zo'r ishonch, qizim. Rahmatli onang tirik bo'lganida bu gaplarni u aytgan bo'lardi. Qanday qilamizki, men gapirishga majburman. O'zi yigitning gap-so'zlarini yoqdimi senga?

Muyassar. Bilmasam... Yomon emasga o'xshaydi... Lekin kennoyisi menga yoqmadi, sal yengilroq ko'rindi.

Burhoniddin. E, soddadil qizim-ey, shunga ham aqling yetmaydimi, kennoyisi seni sinamoqchi bo'lib o'zini atayin yengilroq qilib ko'rsatgan-ku.

Muyassar. Bilmasam...

Burhoniddin. Xullas, maslahat berish menden, masalani hal qilish sendan. Sen nima desang, shu bo'ladi. Qani, ketdik. Namozni

shomga kechikmay.  
Chiqdilar.

### Sakkizinch Ko'rinish

Davronlarning hovlisi. To'rtinchi ko'rinishdagi manzara. Ayvonda Lazokat bilan Muyassar stol tuzatishmoqda. Muyassar kelinlik libosida. Jurnal stolchasi ustida kim telefon qilgani yozilib qoladigan telefon apparati turibdi. Melivoy, Burhoniddin va Abror ayvonga chiqib borishadi, stol atrofidan joy olishadi.

Melivoy. Mening vaqtim ziq. (Lazokat bilan Muyassarga.) Sizlar ham o'tiringlar, xotin qo'yadigan mardni ham buyoqqa chaqiringlar.

Muyassar. Tushunmadim... Oyijon, kim u?

Lazokat. Eringiz, kim bo'lardi.. (Ichkariga qarab.) Davron, buyoqqa chiq, o'qidim.

Muyassar (savol nazari bilan Burhoniddinga qaraydi). Dada...

Burhoniddin. Shunaqa emish, qizim. Meni shunga chaqirishibdi.

Muyassar mo'lillab hammaga bir-bir qarab chiqadi, hamma ko'zini yerga oladi, Muyassar shilq etib stulga o'tirib qoladi.

Melivoy (ko'cha eshik tomonga qarab). Hoy, Mirsafo, chaqqonroq yuring, kutib qoldik sizni...

Mirsafo (ayvonga ko'tarilar ekan). Tinchlikmi?

Melivoy. Zarur gap bor. Hozir yosh bir oilaning hayot-mamot masalasini hal qilamiz. Sizni guvohlikka chaqirdik. Qani o'tira qoling.

Mirsafo. Uzr. O'tirolmayman. Uyimda mehmonlarim bor.

Melivoy. Meniyam vaqtim ziq. Hali to'ylarga boradigan odamman. Bugun "Ibratda beshta nikoh to'yi. Uch kishi qiz chiqaryapti, ikki kishi o'g'il uylantiryapti.

Mirsafo. Axir yangi hovlimni qutlab, yuqoridaq aziz mehmonlar kelishgan. Menga ruxsat bering.

Melivoy (jerkib tashlab). Xudbin bo'lmgan, uka. Mehmonlar biroz o'tirib turishar, bugun dam olish kuni. Lekin yoshlar taqdiriga befarq qarash yaxshimas. Axir, yoshlar kelajagimiz-a. Qolaversa, oldimizda o'g'il-qizlarimiz, nevaralarimiz bor, umid bilan o'stiryapmiz. Noumid shayton, uka. Qani, o'ting bu yoqqa. Masalani zudlik bilan hal qilib tashlaymiz... O'ali men ko'p to'ylarga boradigan odamman... Qani, xotin qo'yadigan o'sha mard bilan bir gaplashib qo'yay-chi men! Chaqiringlar uni!

Davron (qo'lida magnitofon ko'tarib ichkaridan chiqadi). Qani kim men bilan gaplashmoqchi, men tayyorman.

Melivoy (Davronning vajohatidan cho'chib, gap ohangini muloyimlashtiradi). Ke, ke, o'g'lim, mana buyoqqa o'tir.

Davron Burhoniddinga ko'zi tushib, yerga qaraydi, chetroqdagi stulga borib o'tiradi.

Melivoy. Xo'sh, azizlar, menga qolsa, to'y bo'lsa-yu, qo'ysi-chiqdi bo'lmasa. Kulsagu yig'lamasak. Lekin yurtchilik, bazan mana (Davron bilan Muyassarga bir-bir qarab qo'yadi) shunaqa voqealar ham bo'lib turadi. Qani, kim birinchi bo'lib gapiradi?.. Vaqt ketyapti.

Lazokat eriga "Siz gapni boshlang degan manoda buyruq qiladi.

Abror. Bo'lmasa, men gapni boshlab bera qolay... Uch oy bo'libdiki, biz er-xotin zimdan sezib yuribmiz, o'g'limiz kelinga ko'ngilsiz, boloxonada yotib yuribdi. Birga yashab ketishiga ko'zimiz yetmay qoldi.

Mirsafo. E, nafasni issiq qiling-ey, Abror aka. Yashab keta oladi. (Davron bilan Muyassarni ko'rsatib.) Bularni bir ko'ring, yo'q, yaxshilab bir ko'ring. Uzukka ko'z qo'yandek bir-biriga juda munosib-ku.

Hozir sal ko'ngilsiz bo'lsa, bora-bora ko'ngil qo'yib ketadi. Umuman, bular yoshidagi yigit-qizlar ko'ngil nimaligini chuqur biladi, deb bo'larmikin. Yo'q, ular ko'ngil nimaligini bilib yetmay, ko'ngil ko'chalariga kirib ketishlari mumkin. Biz, aqli raso kattalar tajribali, yoshi ulug' kishilar yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak. Men shunday deb o'ylayman. Mana o'zimdan qiyos: bilsalaringiz, mening ham avval boshda xotinimga ko'nglim yo'qday bo'lib tuyulgan edi. Shoshilmadim, kattalarning maslahatiga qulq soldim, yashab ketdim, birinchi farzandimiz bizlarni bog'lab qo'ydi, keyingilari oilamizni mustahkamladi. Davron, sen ham shoshilma, uka, mening gapim shu.

Lazokat Melivoyga "Qani, javob qiling degan manoda ishora qiladi.

Melivoy. Inim Mirsafo, sизу бизнинг давлар бoshqacha edi. Lekin hozirgi kunda yoshlarga "Sevmasang ham birga turaver deyishga haqqimiz yo'q. Buni zamon ko'tarmaydi. Qonun ham yo'l bermaydi, oxiri yomon oqibatlarga olib borishi mumkin.

Abror. Biz, eru xotin ham ana shundan qo'rquamiz-da, o'g'limizning feli-atvori o'zimizga yaxshi malum-da. Bizning borimiz bor, yo'g'imiz bor. Xudo ko'rsatmasin, o'g'limiz ko'ngilsizlik tasirida, jaholatga berilib, kelinga biror ziyon-zahmat yetkazib qo'ymasin deb qo'rquamiz-da.

Burhoniddin. Shahar bedarvoza emas-ku, quda.

Melivoy. Har turli hodisalar qulog'imizga chalinib turibdi, ana shulardan cho'chiyapti qudangiz boyaqish, Burhoniddin aka. (Dabdurstdan Muyassarga.) Xo'sh, sen nima deysan, qizim?

Muyassar avvaliga o'zini biroz yo'qotib qo'yadi. Keyin yerga qarab so'z qotadi.

Muyassar. Men hech qayoqqa ketmayman.

Mirsafo. Barakalla, singlim, ayni muddaoni aytdingiz. Iloyo qo'shganingiz bilan qo'sha qarib yuringlar.

Melivoy. Axir, ering sen bilan turmayman debdi-ku?

Muyassar. Oyijonim bilan turaveraman. Oyijonim meni "Qiyomatli qizim deganlar, men rost gapiryapman, mana oyijonimning yuz-ko'zlar... (Abrorga.) Dadajon, siz ham meni "Siz kelinim emas, qiyomatli qizimsiz, o'zi qizimiz yo'q edi, mana endi ham kelinlik, ham qizlik bo'ldik degan edingiz, to'g'rimi, dadajon?

Abror xotiniga qaraydi. Xotini chetga qaraydi.

Abror. Aniq esimda yo'q.

Muyassar. Yo'q, dadajon, bu gaplarni ko'p marta aytgansiz. Davron akamning amakilari, tog'alari, xolalari, ammalari oldida ham aytgansiz. Mana, Davron akamlar ham shohid. Davron akam rost gapiradilar, men ularga ishonaman.

Davron. Tonmang, dada, shunday degansiz.

Melivoy. Aytgan bo'lsa aytgandir. O'tmishda nimalar deyilmagan.

Burhoniddin. Lekin so'zi bilan ishi bir odamni lafzi halol deyishadi. Lafzi halol bo'lмаган odam munofiq deyiladi. Xo'sh, birodarlar, qudamning gap-so'zlaridan menga ko'p narsa anglashildi. Qizim qanday joyga tushib qolganini mana endi bildim. Hali

bu yerga sira qadam bosmagan edim. Men kuyov chorlar qilganim holda, bular quda chaqiriQi qilmay kelayotir. Buning sababi mana endi oshkor bo'ldi, bularning niyati boshidan buzilgan ekan... Aldanibman, aldashibdi. Lekin ko'chaga tashlab qo'yan qizim yo'q. Ne qilayki, peshonasida sho'ri bor ekan, hoziroq o'zim bilan olib ketaman, ajab emas yana baxtini topib ketadi. Qo'ydi-chiqdi - bu katta fojia emas, xudo bemahal o'limdan asrasin, ayniqsa quruq tuhmatni yaqin yo'latmasin. Mana bular kattagina baxtsizlik hisoblanadi.

Melivoy. Abrorjon, to'ydan ilgari sizga aytmaganmidim, diyonatl, taqdirga tan beradigan ajoyib odamga quda bo'layapsiz deb. Mana, shu gapimning tasdig'i.

Burhoniddin. Birodarlar, ajrim qilib, faqat qizimning o'z mol-mulkini mashinaga ortib bersanglar bo'lgani.

Abror (sevinib). Ayni muddao, quda, mashina ham aytib qo'yanman, guzardagi choyxona oldida kutib turibdi.

Muyassar (ko'ziga yosh olib). Men hech qayoqqa ketmayman.

Burhoniddin (qizini jerkib beradi). Ketasan!

Muyassar. Qaysi yuzim bilan qaytib boraman uyga, dadajon? (Ko'z yoshlarini kafti bilan yuzidan sidirib tashlaydi). Dugonalarim, kennoyilarim nima deb o'ylashadi. Axir, aybim nima o'zi?

Mirsaf. Davron, uka, kelinning aybi nima? Aybi bo'lsa, ko'pchilik oldida bo'yniga qo'yib ber, isbot qil. Ko'nglida armoni qolmasin.

Davron. Xarakterimiz to'g'ri kelmadi.

Burhoniddin. Tushuntiribroq aytинг, o'g'lim.

Melivoy (izoh beradi). Xarakter - fel-atvor degani.

Burhoniddin. Siz bir oz aralashmay tursangiz. Men kuyovimdan so'rayapman.

Davron nima deyishini bilmay, yerga qarab jim qoladi.

Mirsaf. Birga turaverishsa, bora-bora fel-atvorlari ham moslashib ketadi. Mana o'zimdan qiyos.

Davron. Mirsaf aka, siz boshqa, men boshqa, meni o'zingizga o'xshatmang. Men Muyassar bilan birga turishni istamayman.

Abror. Ana, aytdim-ku sizlarga. Topgan gapi shu, men bilan oyisiga ham yengil tutmanglar, azizlar.

Burhoniddin. Nega Muyassar bilan birga turishni istamaysiz, o'g'lim? Axir, bundan uch oy oldin qizimni ko'rib, bilib uylanlangan edingiz-ku.

P<sub>h</sub>P±C<sub>b</sub>P<sub>s</sub>C<sub>b</sub>. TIP°, P<sub>b</sub>C<sub>f</sub>C<sub>l</sub>C<sub>f</sub>C<sub>f</sub>P°C<sub>b</sub>PSP<sub>ē</sub> PeChC<sub>b</sub>P<sub>ē</sub>P±, P±P<sub>ē</sub>C<sub>b</sub> PSPμC<sub>f</sub>P° P<sub>j</sub>P°C<sub>b</sub>C, P° C<sub>f</sub>C<sub>f</sub>C<sub>b</sub>P°C<sub>f</sub>P<sub>ē</sub>P±, C<sub>f</sub>P<sub>s</sub>PIT°P°P»P°C<sub>b</sub> PsP»P<sub>ē</sub>P± P±P<sub>μ</sub>C<sub>b</sub>P<sub>i</sub>P°PS, PeP<sub>μ</sub>P<sub>N</sub>oP<sub>ē</sub>PS ChP·P<sub>ē</sub>C, ChP<sub>N</sub>oPiP° C<sub>b</sub>P<sub>s</sub>P·P<sub>ē</sub>P<sub>ē</sub> P±P<sub>μ</sub>C<sub>b</sub>P<sub>i</sub>P°PS CKPrP<sub>ē</sub>.

Davron (Burhoniddinga). Menga qolsa Muyassarga uylanmasdim.

Burhoniddin. Sizni birov majbur qildimi?

Davron (Abror, Lazokat, Melivoyni ko'rsatib). Mana bular meni noto'g'ri yo'lga boshlashdi.

Abror. Yo, tavba!.. Qaysi ota o'z farzandining baxtini o'ylamaydi.

Davron. Sizda qiyofa yo'q, siz oyimning soyasi bo'lib qolgansiz, dada.

Abror. Birodarlar, axir...

Melivoy. Abrorjon, siz kattasiz, bir gapdan qoling... Xo'sh, ishni, yani ajrimni tezroq, silliqqina bitiraylik. Davronjon, otaga qattiq gapirish yaxshimas.

Davron. Qanaqa odamsiz o'zi, amaki? Hammasini o'zingiz boshlab qo'yib, yana nasihat qilgani uyalmaysizmi?

Melivoy. Obbo bolasi tushmagur-ey! Hali menga ham loy chaplamoqchi shekilli? Ha, mayli, yosh-da hali. Yoshlarni kechirish mumkin.

Davron. Chindanam yosh ekanman. Yoshlik qilmaganimda, sizlarning so'zingizga kirib, Muyassarga uylanmasdim, shu kunga uchrab o'tirmasdim.

Melivoy. Hoy bola, o'ylab gapir. Tuhmat qilsang, mahallamdan haydab yuboraman.

Davron. Menimas, sizni haydab yuborish kerak!

Melivoy avval xandon otadi, keyin masxaralab so'raydi.

Melivoy. Nega?

Davron. Aytaveraymi?

Melivoy. Aytsang, o'zingga jabr bo'ladi, yosh boshing bilan qamalib ketasan. Umring qamoqlarda o'tadi.

Telefon jiringlaydi.

Mirsaf. Mening uyimdan bo'lsa kerak. Bu yerning nomerini qoldirib kelgandim. (Borib telefonni oladi). Labbay! Men

Mirsafoman... (Telefonni biroz ushlab turib, keyin joyiga qo'yadi. Rangi sal o'zgaradi, telefon tutgan qo'li sal titrardi, buni Davron ilg'aydi. Kelib joyiga o'tiradi). Ulanmadi.

Burhoniddin. Davronjon, gapiring, o'g'lim, hammasini gapiring, men bilishim kerak. Men sizga sira yomonlikni ravo ko'rmayman.

Davoyim ham yo'q... Qizimni ham olib ketaman. Bunga so'z beraman.

Davron. Xo'p...

Melivoy (Davronning gapini bo'lib). Endi buyog'i tuhmatga o'tyapti. Bilganingizni qilaveringlar, men ketdim.

Burhoniddin. Qani shu yerdan jilib ko'r-chi. assam singuncha savalayman.

Melivoy. Sizga nima bo'ldi, Burhoniddin aka, hassangiz hali o'zingiz ko'p kerak bo'ladi.

Burhoniddin. Bilsang, sen tufayli hassamni yo'qotdim. Ko'r ekanman. Sening so'zingga uchib, surishtirib-netmay sinamagan joyga qiz berdim. Yo'qolgan hassa sinsa sinibdi-da.

Melivoy. Og'irroq bo'ling.

Burhoniddin. O'tir deyapman senga. Chapaqay jahlim bir chiqmasin. Qani o'tir!

Melivoy majburan joyiga o'tiradi. Burhoniddin ham joyiga cho'kadi.

Burhoniddin. Yolg'on qo'shmay gapiravering, o'g'lim.

Davron. O'zi yolg'oni qo'shib bo'lmaydi ham. To'ydan oldingi hal qiluvchi bir suhbatdan kichik bir parchani eshitasiz hozir. (Magnitofon qo'yadi. Magnitofondan o'sha kungi suhbatning kerakli joylari eshitila boshlaydi).

Magnitofonda:

Melivoyning ovozi. Davronjon, o'g'lim, menga bir fikr keldi: seni avval mohipora, onasi ham o'pmagan bir qizga uylantiramiz. Davronning ovozi. Men Sayyoradan boshqasi bilan yashamayman.

Melivoyning ovozi. Davronjon, sen shoshilma, gapimni oxirigacha eshit. Shunga qarab ish tut. Faqat nomiga uylanasan, faqat bir kechagagina birga bo'lasan. To'ydan keyin oradan ikki-uch oy o'tgach, biz uylantirgan xotiningni qo'yvorasan-u, sevganing bilan topishasan.

Burhoniddin. Bo'ldi, bas, bas, to'xtating, o'g'lim.

Davron magnitofonni to'xtatadi.

Melivoy. Azizlar, men nimaiki qilgan bo'lsm, nimaiki degan bo'lsm, adashgan Davronni to'g'ri yo'lga solish uchun qildim. Agar qiz bolaga uylantirsak, Davron unisini unutib yuboradi, deb o'yladim.

Burhoniddin (Melivoyna yeb tashlagudek bo'lib, nara tortib yuboradi). Hmm! Xumpar! Iblis! Irkit!.. (Qiziga o'nglanib gapiradi.) Kechir, meni qizim, bu maxluqni mahallaning otasi, qirq yillik raisi-ku, to'g'ri so'zlaydi, deb o'ylagandim-da. Bilsam, bu mahallaning tozisi ekan. (Melivoyna). Sen ablah, qizimning taqdirini oyoqosti qilibsan-a. Oyna sinsa, qayta butlab bo'lmaydi-ku! Nima, senga qizlik iffati bozorda sotiladigan bir matomidiki, uning o'rnni qoplab bo'ls! Axir, qo'shiluv kechasi qiz bola uchun qonli inqilob tuni bo'ladi-ku, ey iymonsiz odam, shuni bilarding-ku. Axir, to'rtta qiz chiqargan otasan-ku. O'zingning qizingni yoki nevarangni mening Muyassarim o'rniga qo'yib ko'rsang bo'lmasmidi, ey insofi yo'q. Sen qizimning baxtiga zomin bo'lding, men B-qari otasining bag'rini dog'lab qo'yding!

Melivoy. Yo'q, Burhoniddin aka, men Davronni to'g'ri yo'lga boshladim.

Burhoniddin. Bekorlarni aytibsan, sening yo'ling qalbaki, qaltis yo'l, bu shaytonning yo'li!

Melivoy. Men...

Burhoniddin. Yana gap bermaydi-ya, bu ablah! Yo'q, yo'q, yo'q, men endi chidab turolmayman!

Burhoniddin hassasini o'qtalib Melivoyna tashlanadi. Melivoy qochadi. Burhoniddin uni quvlaydi. Melivoy ayvondan uyga kiradi, eshikni yopib jon saqlamoqchi bo'ladi. Burhoniddin yelkasi bilan itarib ochib, ichkaridan berkитib oladi. Keyin uning hassa bilan Melivoyni urayotgani eshitiladi.

Burhoniddin ovozi. Mana senga! Mana senga! Mana bunisi qizimning alami uchun! Mana bunisi o'zimning alamim uchun! Mana bunisi rahmatli xotinimning arvox xotirasi uchun! Qasam ichamanki, shu hassam sinib bitmaguncha sen ablahni savalayveraman. Mana!.. Mana!.. Mana yana!..

Melivoyning ovozi. Voydod, musulmonlar, yordam beringlar! Esini yegan bu jinni meni o'ldirib qo'yadi! Voy, voy! Voy do-od! Yordam beringlar! Oh, voy! Voy!

Mirsaf, Lazokat, Abrorlar xona eshigini ocholmay, Melivoyna yordam berolmaydilar. Keyin ichkaridan ovoz eshitilmay qoladi. Mirsaf. Bo'laricha bo'lди. (Ikki qo'lini silkib chiqib ketadi).

Ko'cha tomonidan mashina motori o't olib, yurib ketgani eshitiladi.

Davron (telefon apparati tugmasini bosib, Mirsaf hali kim bilan gaplashganini tekshiradi, o'zi bilan o'zi gaplashadi). Bilaylik-chi, hali Mirsaf aka kim bilan gaplashdiykin? Ie, bu Sayyoraning nomeri-ku. Ha, ablahlar! Manzura opa chet elda-da, uning yo'qligida paytdan foydalanishmoqchi bo'lhibdi. Har qadamda xiyonat, sotqinlik! Mening oldimga poxol solmoqchi bo'libdi-da. Men ularga hali ko'rsatib qo'yaman. Yo'qsa, Davron otimni boshqa qo'yaman. Agar u ikki yaramasni chavaqlab tashlamasam, yigit emasman. (Stol ustidagi katta pichoqni qo'liga oladi).

Muyassar (yo'lini to'sib). Jon Davron aka, ketmang, ketmaysiz.

Lazokat. Bu nima qiliq, jinni!

Davron. Huv onangni! (Ota-onasiga qarab.) Ko'zimga ko'rinnalaring hozir! Bo'lmasa chavaqlashni ikkovingdan boshlayman.

Abror. Xo'p, xo'p, o'g'lim...

Davron. Meni o'g'lim dema, sen so'tak!

Abror va Lazokat ayvondan shoshib tushib, o'choqboshi tomon ketishadi.

Davron. Kechir meni Muyassar. Men senga, dadangga ko'p ozor yetkazdim.

Muyassar. Endi u gaplarni eslamang, hozir qolsangiz, pichoqni joyiga qo'ysangiz, men sizni mutlaqo kechirib yuboraman, sirayam tana qilmayman.

Davron. Yo'q, Muyassar, men senga munosib emasman. Men o'z baxtimni topay deb, sening baxtingni oyoqosti qilibman. O'z muhabbatim uchun kurashib, sening or-nomusingni beqadr qilibman. Men bir betayin odam ekanman. Boshida Sayyorani deganmidim, oxirigacha ahdimda qat'iy turishim kerak edi. Senga uylanmasligim, soxta nikohga rozi bo'lmasligim kerak edi. Chekinibmanmi, irodasiz ekanman, mard, sevgiga munosib emas ekanman. Muyassar, senga munosib emasman. Men beburzman. Muyassar. Yo'q, siz adashgansiz, sizni aldashgan. Ketmang! Qoling!

Davron. Yo'limni to'sma, Muyassar. Muhabbat deb o'ylaganim sarob bo'lib chiqdi. Men qasos olaman, qasos! (Muyassarni chetlab o'tib, yugurib ko'chaga chiqib ketadi).

Muyassar (orqasidan). Meni tashlab ketmang, meni tashlab ketmang. (Ikki qo'li bilan boshini ushlab, yig'lab qoladi).

Mashina motori o't olib, o'qdek uchib ketgani eshitiladi.

Xona eshigi ochilib, ikki qo'lida ikkiga bo'llingan hassasini ushlaganicha Burhoniddin ayvonga chiqadi.

Abror va Lazokatning boshlari ko'rindi, Burhoniddinga ko'zlarini orqaga olishadi.

Burhoniddin. Qarigan chog'imda qo'lim munofiqning harom qoni bilan bulg'andi, jaholatga berilib, shu ishni qilib qo'ydim. Iblis yo'ldi, yo hushini yo'qotdi - indamay qoldi. Xullas, qizim, sening qasosingni oldim, endi meni otsalar ham, qamasalar ham, achinmayman. Men oshimi oshab, yoshimi yashab bo'lgan qari odamman. Lekin kuyovim yosh narsa, u juvonmarg bo'lmasligi kerak. U qani?

Muyassar. Pichoq ko'tarib odam o'ldirgani ketdi u.

Burhoniddin. E, battol-ey! Yo'lini to'sish kerak, qaytarish kerak.

Muyassar. Yuring tez, dada! Boradigan joyini bilaman.

Ota-bola shoshilib chiqadilar.

Ichkari xonadan hammayog'i qon, boshi yorilgan, kiyim-kechagi yirtilgan, sochlari to'zg'igan Melivoy inqillab, sinqillab sudralib chiqib, ayvon devoriga suyanib o'tirib qoladi, boshi quyi egilgan, ko'zlarini yumuq.

Melivoy. Voy, voy-voy, voy jonim...

Abror va Lazokatning boshlari ko'rindi, avval mo'ralab qarashadi, keyin ayvonga yaqin kelishadi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Lazokat (Eng). Shu ham ko'z yugurib, bi roq-nor u masdan Davronning yo'lini to'sish kerak.

Abror. Yo'q, o'zлari yugursinlar! Men...

Lazokat. Ermisan, erkakmisan, axir. Otamisan o'zing?!

Abror. Men vrachman. Men...

Lazokat. He, hezalak, qo'rkoq. Esiz sen bilan o'tkazgan shuncha yillik umrim... (Ko'cha tomonga yugurib chiqib ketadi).

Abror (orqasidan). Men vrachman. Melivoy akaga tez yordam ko'rsatish mening vrachlik burchim, men uni shunday alfozda tashlab ketolmayman. (Ayvon tomonga yuradi). O'lib qolsa tovoniga qolamiz-a.

Mashina motori o't olib, tez yurib ketgani eshitiladi.

Abror Melivoyning yuziga suv sepib, o'ziga keltirishga urinadi, yuziga shapatilaydi.

Abror. Melivoy aka, ko'zingizni oching, men hozir tez yordam chaqiraman. (Telefon raqamlarini teradi).

Melivoy (ko'zini ohib, biroz o'ziga kelib). Tez yordam?.. Kerakmas, inim. Tez yordam kerakmas. Bu holda odamlar ko'ziga tirik ko'ringanimdan ko'ra o'lganim ming marta alo.

Abror. Tovoningizga qolishni istamayman. (Telefonga.) Tez yordammi? Falokat yuz berdi. O'n qo'shni boloxonadan yiqilib tushdi... Boshi yorilgan... Behush... Yoshimi? Oltmishtan oshgan...

Melivoy emaklab borib, Abrorning oyog'lariga yopishib yolboradi.

Melivoy. Meni o'zing davola, yopig'liq qozon yopig'ligicha qolsin. El-yurt malomatiga qolishni istamayman. (Telefon qulog'ini tortib olib, Abrorga gapirishga qo'yaydi.) Iltimos qilaman, yolboraman sendan. (Telefon qulog'ini bag'rige bosganicha yuztuban yiqilib tushadi).

Abror (cho'kkalab, Melivoyning boshini tizzasiga oladi). Xo'p, xo'p, mayli, sizningcha bo'lsin, lekin ko'zingizni oching, ko'zingizni oching. (Yuziga shappatilab, o'ziga keltirishga urinadi).

Shu asnoda musiqa sadolari ostida chiroq o'chadi.

Parda